



D.O.XIMMATALIEV, S.B.ALLAYOROVA

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI
PEDAGOGIK-KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA MUSTAQIL
ISHLARNI TASHKIL ETISH VA
O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY
TAVSIYALAR**



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

--	--

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

XIMMATALIYEV D.O., ALLAYOROVA S.B.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK-
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA
MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH VA
O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR**

(Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida)

Monografiya

Namangan – 2023

UO'K: 37.013:378

KBK: 74.48

X – 61, A – 38

ISBN: 978-9910-743-27-6

Ximmataliyev D.O, Allayorova S.B

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Monografiya. – Toshkent: 2023 yil.

Mazkur monografiyada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yahshi usullaridan biri mustaqil talim so'z boradi. Maqola mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va mustaqil ta'lim olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida qator taklif va shu maqsadda amalga oshirilgan qator uslubiy tajribalarni misol tariqasida yoritib beradi. SHuningdek oliy talimda oquv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini qanday mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lishi hamda ta'lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuviga bo'lgan bugungi kun talabini ham ochishga harakat qilingan.

Ushbu monografiyada bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ishlarni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma'lumotlar aks ettirilgan. Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat ekanligi ta'kidlangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2023 yil "29" sentyabrdagi 14-sonli majlis qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-743-27-6

© Ximmataliyev D.O, Allayorova S.B

© "Usmon Nosir media", Namangan-2023

KIRISH

Kasb ta'limi yo'nalishida tahsil olib kasbiy faoliyatga tayyorgarligingiz mobaynida ijodiy izlanish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirasiz. Vatanimiz, institutimiz, qolaversa o'rta ma'nsus, kasb-hunar ta'limi tizimi katta-kichik yangiliklarni kashf etadigan olimlarni kutib qoladi.

Oliy ta'lim muassasa rahbariyati, barcha professor-o'qituvchilar, murabbiylar oliy ta'lim muassasaga qadam qo'ygan har biringiz uni muvaffaqiyatli tugatishingiz uchun jon kuydiradi. Shunday ekan bu borada hamma narsa o'zingizga, mehnatsevarligingiz, intiluvchanligingiz va tirishqoqligingizga bog'liq.

O'qish boshidan o'zingizda bilim to'plashga qat'iy ketma-ketlikka o'rganing. Ilm-fanlarning cho'qqilarini zabt etishdan avval, ularni "alifbo"sidan boshlash lozim. Hech qachon oldingisini o'zlashtirmasdan turib, keyingisiga urinmang. O'rganayotgan, egallayotgan bilimlaringizdagi kamchiliklarni turli xil behayo taxmin fikr va mulohazalar bilan yashirishga harakat qilmang. O'zingizni sabr-bardoshlikka, ilm yo'lida yangiliklarni o'rganish, ijodiy ishlarni bajarishga o'rganing. Dalil (fakt)larni o'rganing, solishtiring va to'plang. Ularni kelib chiqish sirlarini o'rganishga harakat qiling va boshqaradigan qonunlarni izlang.

Hech qachon hamma narsani bilaman deb o'ylamang. Takabburlikka yo'l qo'ymang. Bu xususiyat tufayli Siz o'zingizda rozilik bildirish kerak bo'lgan paytlarda qaysarlik qilasiz, do'stona maslahatlar, yordamdan voz kechasiz, narsalarni, hodisalarni baholashda solislik me'yorini yo'qotasiz.

Yodingizda bo'lsin – ilm insondan butun umrini talab etadi. Ilm-fan insondan yuksak ehtirosini, diqqat-e'tiborni talab etadi. O'z ishingiz va izlanishlaringizda qizg'in ehtirosli bo'ling.

Hozirgi global sharoitda O'zbekistondagi bugungi kun va istiqbolli muammolar mutaxassislarni sifat jihatidan yangi avlodini tayyorlashni talab etadi. Bu mutaxassislar mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy mavjudliklarni o'zgarishlarga mos ravishda o'z faoliyati yo'nalish va mohiyatini tezkor o'zgartira olishlari kerak.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining tezlashishi oliy maktabda mutaxassislarni tayyorlashga umuman yangi talablar qo'yadi. Mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun oliy maktabdagi qayta qurilishlar, yangi jahon talablariga mos o'quv rejalari va dasturlariga o'tishni, ilm-fanni eng yangi yutuqlarini e'tiborga olgan holda ularni muntazam o'zgartirib turishni, fundamental nazariy tayyorgarlikni yaxshilash, yoshlarning mustaqil ijodini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Auditoriya yuklamasini majburiy kamaytirish hamda talabaning mustaqil ish ulushini ortishi o'quv materialini o'rganish bo'yicha mustaqil mehnatni to'g'ri tashkillashtirishni talab etadi. Bilimlarni to'plash ilmiy, pedagogik, muhandislik va ishlab chiqarish masalalarini hal qilish bilan uzviy bog'langan holda olib borilishi kerak.

Barcha o'quv kurslarini, ayniqsa maxsus fanlarni o'qitilishi, inofmatika noan'anaviy kurslari nazariyasini, jarayonlarni tadqiqot qilish, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyalarini, o'yinlar nazariyasini, chiziqli va nochiziqli dasturlashni, boshqarish nazariyasini to'liq o'zlashtirish bitiruvchi talabalar tomonidan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashirilishining zaruriy asosidir.

Oliy ta'lim muassasasini bitirishi bilan bitiruvchilarni egallagan kasbiy mahoratlari ularga kasb-hunar ta'limi muassasalari, ishlab chiqarish bo'linmalariga rahbarlik qilishiga imkoniyat berishi uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Shu sababli, birinchi kursdan boshlab ijtimoiy tizimli fikrlashni, yuqori darajada kasbiy bilimlarni egallashni va mobillikni, yangi bilimlarni egallashga intilishda mustaqillikni shakllantirish lozim.

Ushbu tavsiyalar oliy ta'lim tizimida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari va professor-o'qituvchilarga ta'limning birinchi bosqichida o'quv fanlari bo'yicha material ustida muntazam ravishda mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Talabalar qobiliyatini oliy ta'lim muassasa (OTM) qanday qilib ishga soladi? Talabaning o'qishiga nima xalaqit beradi? Bu savollarga javoblar har bir o'quvchiga o'zlashtirishni ko'tarish uchun zahira

(rezerv)larni topishga, o'z-o'zini tashkillashtirish darajasini baholashga, o'z qobiliyatini ishga solish imkonini beradi.

O'z-o'ziga qo'yiladigan talab darajasi, faoliyatiga sarflangan mehnat miqdori ijodi va o'qishidagi erishgan yutuqlar miqdorini belgilaydi.

O'z-o'zini yuqori darajada ishlata olishning asosiy yo'li – bu bajarilayotgan ish takomillashtirishdan iborat. talaba faoliyatini jadallashtirishning muhim tomonlarini – o'quv jarayonini tegishli tashkil etish, darslik va dasturlarni ishlab chiqish va hokazolarni professor-o'qituvchilar ta'minlab berishlari darkor. Ammo, eng yaxshi darsliklar va kompyuterlar ham o'ylashni hohlamaydigan odamni ijodkor qila olmaydi, uning uchun yangilik kashf eta olmaydilar.

Bu muammolarni faqat o'qituvchi talabalarning yaqindan hamkorligida amaliy hal qilish mumkin. bunday hamkorlikning negizi – bu talabalarga "butun umr davomida o'rganish" tamoyilini singdirish va ularda hali ham bor bo'lgan "butun umrga o'rganish" tamoyiliga tayanishni yo'q qilishdir. Ta'limni ilg'or texnologiyasining asosiy funksiyasi – bu mustaqil ravishda bilim olishni o'rganish, buni odat tusiga kiritish, talab darajasiga ko'tarishni zamonaviy kasbiy tayyorgarlik bilan birga talaba ongiga singdirishdir.

Hamma vaqt ham oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi talabalarda butun umr davomida bilim olishni o'rganish va jismoniy talab darajasiga ko'tarishni tarbiyalash, talabalarni mustaqillik, unga intilish, o'z bahosini his qilish, chetdan qarab turib boshqalarning yordamini kutmasdan o'z kuchiga ishonish, o'z mehnati bilan farovonlikka erishishga ishtiyoqni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Bunga jami o'quv-tarbiya jarayoni asosi sifatida yangi ta'lim texnologiyalari yordam berishi kerak.

Yangi ta'lim texnologiyalarini tadbqiq etishag kelganda shuni ta'kidlab o'tish joizki, internet tizimi bugungi kunda o'qitish jarayonini asborot ta'minotini oshirmoqda.

**1-BOB: BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINI
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TALABA
MUSTAQIL ISHINING DOLZARBLIGI**

1.1-§. Talabalar mustaqil ishining mohiyati va mazmuni

**1.1.1-§. Talabalar mustaqil ishi – mutaxassis va tadqiqotchi
yaratilishining zaruriy bo'g'ini**

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda talaba mustaqil ishini rejalashtirish, tashkil etish va olib borish bo'yicha tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 19 iyundagi "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish haqida"gi 244/1-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqilgan. Bu buyruqda oliy ta'limni modernizatsiyalash konsepsiyasi qilib kasbiy ta'limning asosiy vazifalari belgilangan, ya'ni: "tegishli daraja va profilga ega, mehnat bozorida raqobatbardosh, bilimdon, mas'uliyatli, o'z kasbini yaxshi bilgan, turdosh kablarda ham tushunchaga ega, jahon standartlari darajasida ixtisosligi bo'yicha samarali ishlay oladigan, doimo kasbiy mahoratini oshirishga tayyor, tegishli bilimlarni olishga shaxs talablarini qondira oladigan malakali ishchini tayyorlash".

Bu masalalarni o'quv material ustida talabalar mustaqil ishlari kabi ta'lim elementisiz hal etib bo'lmaydi. Ammo, faqat talabalarining mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy faolligini oshirishga o'qituvchi mas'uliyat bilan qaraganda ish sifatini ko'rsatish mumkin.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mutaxassisning ayniqsa kasbiy mahoratiga yuqori talablar qo'yadi. Yuqori darajali malakadan tashqari oliy ta'lim muassasa bitiruvchisi mustaqil shaxs, tashabbuskor, qaror qabul qila oladigan va u uchun javobgarlikni ham o'z zimmasiga oladigan, nostandart fikrlaydigan, dinamik o'zgaruvchan vaziyatga tez moslashadigan, konkret-qobiliyatli mutaxassis bo'lishi kerak.

Zamonaviy sharoitlarda har qanday mutaxassisni tayyorlash sifati nafaqat uning bilim saviyasi bilan, balki yangi kasbiy va ijtimoiy vazifalarni mustaqil qo'yish va ularni hal qilishi bilan aniqlanadi. Shuning uchun bilim olish jarayonini ekstensiv (sifatga e'tibor

bermaslik) asosdan intensivga o'tkazish zaruriyati tug'iladi. Oliy ta'lim muassasani bitirish vaqtida tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilimni mustaqil to'ldirish xususiyatiga ega bo'lgan va o'zining kasbiy faoliyatida noqulay vaziyatlarga to'qnash kelishiga tayyor bo'lgan

Masalaning bunday qo'yilishi Yevropa Kengashi tomonidan belgilangan ta'limning ustuvor yo'nalishiga mos keladi va paradigmasining o'zgarishini o'z ichiga oladi: butun umrga o'rganishdan butun umr davomida o'rganishga o'tish. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida bilim olish jarayoni ko'proq talabalarining tashkil mustaqilligini rag'batlantirishga tayanadi.

Talabalarining faol mustaqil ishi kursi zamonaviy mutaxassislarni ularning keyingi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik asosiga qo'yiladi. Shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari o'quv yuklamasi hajmining 35 % ni mustaqil ish uchun ko'zda tutadi, ammo uni tashkillashtirish usullari to'g'risida aniq tavsiyanomalar bermaydi. Shuning uchun mazkur muammolarning tadqiqoti olimlarni qiziqtirishi tasodifiy emas. Masalan Ye.Ya.Golant, M.A.Danilov, B.R.Yesipov, V.B.Kozakov, P.I.Pidkasistiy va boshqalarning ishlarida ta'lim o'qituvchilarining mustaqil ishini tashkillashtirish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Mustaqil ishning mohiyatini aniqlashga harakat qilingan. Uni o'quv jarayonidagi o'rni va vazifasi aniqlanadi, maqsadlari ishlab chiqiladi, mustaqil ishning turlarini sinflash yo'llari aniqlanadi.

M.Arxaangelskiy, S.I.Zinoviyev, R.A.Nizamov, N.D.Nikandrov, V.A.Bilantenin va boshqalarning ishlarida talabalar mustaqil ishini o'quv jarayonini tashkil etish asosiy shakli sifatida amalga oshirish umumdidaktik masalalarni ko'rib chiqilgan.

Turli yillarda A.K.Gramseva, G.M.Kodjaspirova, V.I.osmonovskiy va boshqalar tomonidan mustaqil ta'lim va mustaqil tayyorgarlikni kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida tadqiqot ishlari alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu tadqiqotlarda talabalarining mustaqil ta'lim yo'llari, ularda mustaqil ta'lim ko'nikmalari va usullarini o'rganishni shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Mustaqil ishlarni faollashtirish masalalari bo'yicha nashr etilgan maqolalar e'tiborga loyiq. Bu ishlarda

mualliflar talabalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirishning asosiy usul va vositalarini ochib berishga harakat qilishgan.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, L.V.Klemenko va N.R.Krayevskayalar amalga oshirgan talabalar mustaqil ishini boshqarish va nazorat qilish masalalarini tadqiqoti muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar talaba mustaqil ishini boshqarish va nazorat qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlaydilar, talabalarni o'rgatish jarayonida ularni qo'llash samaradorligini tahlil qilishadi. Ammo psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlili, kuzatishlar va keng miqdordagi amaldagi material shuni tasdiqlaydiki, mustaqil ish ko'proq o'quv fanini chuqurroq o'rganish, talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi xususiy uslubiy masalalarni yechishda qo'llanilar ekan. Bunda talaba mustaqil ishini tashkillashtirish bo'lg'usi kafsbi va mehnat faoliyatida zarur bo'lgan mustaqillikni rivojlantirish bilan bog'lanmaydi.

Ushbu uslubiy tavsiyada mustaqil ishni tashkillashtirishni, uzluksiz ta'limning ko'p pog'onali tizimidagi talabalar kasbiy tayyorgarligining mazmuni, uslubiyati, shakli, vosita va boshqaruv aspektlarini o'z ichiga oladigan ko'p komponentli tuzilmani tushunish mumkin.

Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'zini rivojlantirishga, ta'lim olishiga, innovasiya faoliyat yuritishiga qodir bo'lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdan iborat. Bu masalani hal qilishda, tayyor holda bilimlarni o'qituvchidan talabaga yetkazish bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Talaba bilimlarni passiv iste'molchisidan ularni faol yaratuvchisiga, masalani ifodalay oladigan, uni yechish usullarini tahlil qila oladigan, eng yaxshi yechimni topa oladigan va buni isbotlay oladigan shaxsga aylanishi zarur. Talaba mustaqil ishi bilim olishning faol usullarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni, oqim bo'yicha o'qish tarzidan shaxsiyga o'tishni, talabaning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qishga qaratishni taqozo etadi.

Ham auditoriya, ham mustaqil ishlarni taqsimlanishida oliy ta'lim davlat standartlariga amal qiladi, qaysilarida talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlariga bir haftalik vaqtining yarmisi ajratilgan. Bu

auditoriya soatlarini qisqarishiga olib keladi, lekin, bu bilan fanlarning mazmuni kamaymagan, ayrim hollarda esa, aksincha, ko'paygan. O'qituvchining "qo'ng'iroqli" yuklamasi qisqargan. Shuning uchun o'qituvchisiz bajariladigan talabaning ishini rejalashtirish, tashkillashtirish oliy ta'lim muassasada ta'lim olishning eng muhim masalasi bo'lib qoldi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarini o'quv sifatini oshiruvchi, talabaning bilim olish faoliyatini jadallashtiruvchi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi yanada takomillashgan o'quv usullarini ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga tadbiq etish zarurligini ishonitirib o'tirishning keragi yo'q. Bu masalani hal etishda talabalarni mustaqil aqliy mehnatga qodirligi va ko'nikmalariga egaligi asosiy rolni o'ynaydi. Buning ahamiyati yanada ortib boradi, chunki o'qituvchilar qanday bilimlarni va qanday hajmda egallayotganliklaridan qat'iy nazar, bu bilimlar hayot talabalaridan orqada qolish va tezda eskirishga moyil bo'ladi.

Masalani yechimi qayerda va nimadan iborat? U – talabalarni mustaqil o'qishga o'rgatish, mustaqil ravishda turli axborot manbalaridan bilim olish, iloji boricha mustaqil ishlarning ko'proq turlarini egallashdadir.

Afsuski, amaliyot shuni ko'rsatadiki, bk borada ko'p narsani ushuga yetkazilmaydi. Talabalarni tayyorlashda eng katta kamchilik – bu ularni bilim egallash va undan foydalanishda mustaqilligi darajasini pastligi, egallagan ko'nikmalari va mahoratini puxta egallamasligidir. Masalan tadqiqotlarda, ayrim pedagogik nashrlarda mustaqil ish bo'yicha ko'pincha umumiy holda yoki uni qo'llash bo'yicha alohida ko'rinishda ko'rsatmalar beriladi.

Asosan, qoida, tushuncha, qonunlar haqida bilimlarni mustahkamlash, qaytarish, o'zlashtirishni tekshirish bosqichlarida talabalarni ma'lum bilimlar, ko'nikmalar tizimi bilan qurollantirishga qaratilgan, bunday ishlarning shakl va turlari tasniflanadi va yoritiladi, ulardan foydalanish shartlari aniqlanadi, bu esa yangi materialarni o'rganish jarayonida umuman yetarli emas. Ammo, shunisi ma'lumki, mustaqil ravishda olingan bilim, o'qituvchi tomonidan tayyor bilim

sifatida yetkazilganidan ko'ra ancha yaxshiroq o'zlashtiriladi. O'qituvchilar tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini tekshirish bo'yicha tajribaviy ishlar yetarli darajada olib borilmaydi. Ayniqas quyidagilar muhim o'rin egallaydilar. Talabalarning aqliy rivojlanish va fikrlash qobiliyatini faollashtirish darajasini yuksaltirishga qanday omillar ta'sir etadi, har bir talabaning yangi bilimlarni egallash hamda ularni o'zlashtirish jarayonida talaba mustaqil ishini qanday tashkil etish, qanday qilib talabalarning ushbu ta'lim bosqichida aqliy va amaliy ishlari hajmini oshirish, ularni rivojlanishida omillarni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, xulosalarni ifodalash, o'z amaliy xarakterlarini asoslashni uddasidan chiqishni eplay olishini shakllanishi uchun qulay sharoitlarni yaratish zarur.

O'tmishning eng tajribali pedagoglari ko'p marta shuni ta'kidlashganki, pedagog rolining muhimligiga qaramasdan ta'limning asosiy maqsadlariga avvalambor o'quvchining o'z sa'yi-harakatlari natijalarida erishiladi. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" kitobida pedagoglarni ular kam o'rgatadigan, o'quvchilar esa ko'proq o'rganadigan usullarni izlab topishga chaqirar edi.

Bir qancha mualliflar mustaqil ish tushunchasidan turlicha ma'noda foydalanadilar. Turli talqilar, avvalambor, mustaqil so'ziga qanday ma'no berilganiga bog'liq. Asosan bu tushunchani uch xil ma'nosi uchraydi:

- o'quvchi o'qituvchining ishtirokisiz o'z ishini bajarishi lozim;
- o'quvchidan o'quv materiali bilan mustaqil ishlash, mu3staiql fikrlashni amalga oshirishni talab etiladi;
- ish vaqti qat'iy belgilanmagan, talabaga vazifani bajarish usullari va mazmunini tanlashda erkinlik beriladi.

Ko'pchilikni qiziqtiradigan oliy ta'limga taalluqli muammolar tadqiqotchilari ham (K.I.Arhang va boshqalar) "mustaqil ish" atamasidan turli ma'noda foydalanishgan. Shunday qilib "mustaqil ish" quyidagicha talqin etiladi: bilimlarni egallash uchun zarur ma'lumotlarni mustaqil izlash, ushbu bilimlardan o'quv, ilmiy va kasbiy masalalarni yechishda foydalanish (S.I.Arhangelskiy); ma'ruza

vaqtida, mashg'ulotlarga, joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON) va yakuniy nazorat (YAN)larga tayyorgarlik ko'rganda, kurs va bitiruv matakaviy ish (BMI)larni bajarishda o'quv materialiga ijodiy yondashish va tushuntirish (A.G.Molibog); talabalarning o'quv jarayonida yoki auditoriyadan tashqarida o'qituvchining bevosita rahbarligisiz, ammo uning nazorati ostida yakka tartibda yoki guruh tartibida amalga oshiradigan faoliyati (R.I.Nizamov).

Oliy ta'lim muassasa (OTM)da mustaqil ishlarni tashkil etish uchun foydali ma'lumotlarni oqilona topish ko'nikmalariga ega bo'lish va uddalashda faollik va mustaqillikni shaxsning xususiyati sifatida tarbiyalashning choralar tizimi deb ko'riladi (B.I.Igonzin).

Shuningdek, bir qator mualliflar mustaqil ishni o'qituvchisiz o'tadigan o'quv jarayonini boshqaruvchi pedagogik sharoitlarni tashkil etish tizimi deb tushunadilar (V.Graf, I.I.Ilyasov, V.Ya.Ludis). Ba'zi paytda mustaqil ish mustaqil ta'limga tenglashtiriladi (B.I.Zimoviyev).

Yuqorida keltirilgan ta'rif va sharhlardan ko'rinib turibdiki, talabalar mustaqil ishi bir tomondan mustaqillik va follikni rag'batlantiruvchi hamda mustaqil ta'lim negizi, keyingi malaka oshirishlariga turtki bo'ladigan faoliyat turi deb, ikkinchi tomondan, talabalar mustaqil faoliyatini ta'minlovchi chora va pedagogik sharoitlar tizimi deb ko'riladi. Ko'rib turibmizki, talaba mustaqil ishi muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar bu tushunchga turlicha mazmun kiritadilar. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil ish o'qituvchi tomonidan boshqariladigan talabalarning umumta'lim va maxsus tayyorloviga qaratilgan o'rganish faoliyatining bir turi ham deb hisoblanishi mumkin. Ko'pincha, mustaqil ish tushunchasi birinchi talqinda ishlatiladi. M.R.Kashin ushbu tushunchani aynan shu talqinda ishlatgan holda o'tgan asrning 50-yillar oxirida pedagogik jamiyat e'tibori markazi oldiga surgan.

"Mustaqil" degan tushunchaning ikkinchi ma'nosi uchun talabalar mustaqil fikrlab, muammolarni hal etishi muhim ahamiyatga ega; shu bilan birga, o'quv ishi ommaviy ravishda yoki individual amalga oshirilishining ahamiyati yo'q. Mustaqillikning uchinchi ko'rinishida

reglamentning ahamiyatsizligi yoki uning umuman yo'qligida o'quvchilarning ikki xil faoliyati ko'rsatiladi: mustaqil va ijroi.

Chet el pedagogik adabiyotlarida mustaqil ishni belgilashda qator mustaqil ishning turli tomonlarini ko'rsatuvchi atamalardan foydalaniladi. Germaniyada "bilvosita ta'lim" tushunchasidan foydalaniladi, bu esa o'qituvchining bilvosita rahbarligida bajariladigan ish deganidir. Avstriya, Shveysariya pedagogik adabiyotlarida "osoyishta ish" atamasi ishlatiladi, bu bilan mustaqil ish jarayonida hukmronlik qiladigan sukunat va yolg'izlik namoyon etiladi. Fransuz va ingliz adabiyotlarida "shaxsiy ish" atamasi uchraydi. AQSHda "yorqin ish" atamasi kiritilgan, bunda talabalarga dasturlar beriladi, ammo material va o'zlashtirish usullarini tanlashda nisbatan erkinlikka yo'l qo'yiladi.

"Pedagogik mehnatning alifbosi" ishida V.M.Rogozinskiy mustaqil ishni rejaga asosan o'rganish, tashkiliy va uslubiy tomondan yo'naltiriladigan, aniq natijaga olib keladigan o'qituvchining bevosita yordamisiz amalga oshiriladigan talabalarning faoliyati deb tavsiflaydi.

T.A.Ilinning "Pedagogika" darsligida mustaqil ish o'qituvchilarning individual, guruhviy va frontal o'quv faoliyatining alohida bir turi sifatida ta'riflandi. Bu faoliyat o'qituvchining rahbarligi ostida, ammo uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi, o'rganish jarayonining yuqori faolligi bilan tavsiflanadigan ham mashg'ulotlarda, ham auditoriyadan tashqarida bajarilishi mumkin bo'lgan hamda ta'lim jarayoni va talabalarni o'z bilimlarini mustaqil to'ldirishga tayyorlash samaradorligini oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli, talabalar mustaqil ishi ahamiyati ortib bormoqda. Bu masalaga pedagogika, psixologiya va ta'lim berish bo'yicha maxsus adabiyotlarda alohida e'tibor beriladi; amaliy tajribalar umumlashtiriladi, talabalar vaqt byudjeti o'rganiladi, turli ixtisoslik va fanlarga muvofiq ravishda aqliy mehnat madaniyati va tashkil etishni oqilona usullari o'rganiladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish jarayonida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mustaqil ishni tashkil qilish, o'quv mehnatini bajara olishni shakllantirish oliy ta'lim muassasalaridan keyingi ta'lim va malaka oshirishga asos bo'lib xizmat

qiladi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida talabalar keyingi mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishi kerak, bu maqsadga erishish zarurati bo'lib mustaqil ish xizmat qiladi.

Talabalar mustaqil ishi – mutaxassis va tadqiqotchi yaratilishining zaruriy bo'g'inidir. Talabalar mustaqil ishiga ko'proq e'tibor beriladigan oliy ta'lim muassasa o'quv jarayonining o'ziga xosligi – bu masalani amalga oshirishda uning eng oxirgi va eng mos keluvchiga e'tibor berilishi kerak. Chunki oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida bilim olish ko'nikmalarini egallash, uslublarini o'rganishga bo'linadi va bilimning oqilonaligi oliy ta'lim muassasasining yuqori malakali bitiruvchisiga doimiy ravishda bilimni yangilashga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda oliy maktabni ikki bosqichli o'quv tizimiga o'tish jarayonida ta'lim xususiyatining yangi konsepsiyasi hosil bo'ladi. O'quv jarayonining maqsadi nafaqat o'qituvchidan talabaga bilim va mahoratni o'tatish, balki talabalarda uzluksiz doimiy mustaqil bilimlarni oshirish, bilimlarni to'ldirish va yangilanishga intilish, ulardan bo'lg'usi mehnat faoliyatida amalga oshiriladigan jodiy foydalana olish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirishdadir. Talaba ta'limning passiv ob'yekti emas, balki o'quv jarayonining faol shaxsi bo'lishi kerak. Demak, uni faol o'quv jarayoniga jalb etish, "o'qishga o'rgatish", bilimlarni egallashda unga yordam berish lozim; ta'lim bitiruvchining butun ong'li hayotini egallashi kerak, ya'ni ta'lim butun umrga emas, balki butun umr bo'yicha.

Zamonaviy oliy maktabni rivojlanish davrida uning vazifasiga mos sharoitlarda quyidagi muammolarni hal etish zarur. Birinchidan, o'qituvchi va talabaning an'anaviy ma'ruza, seminar, amaliy va boshqa mashg'ulotlarga tayyorlash uchun vaqt, energiya va mehnat sarflarini kamaytirish muhim. Ikkinchidan, umuman boshqa sifatga ega ta'limni ta'minlash kerak. Uchinchidan, xalqaro ta'lim muhitiga moslashish zarur. Dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lgan, o'zi uchun hamda jamiyat uchun eng yuqori samara bilan nostandart ishlab chiqarish, ilmiy o'quv muassasalarini tezkorlik bilan yecha oladigan ertangi kun muassasalarini tayyorlash haqida gap bormoqda.

XXI asr insonni o'zi boshqara olishi, erkin bo'lishi, ma'naviy va estetik jihatdan rivojlangan, aqlli va odobli, kuchli iroda, keng yurak, rivojlangan ichki hissiyot va mustahkam sog'liqqa ega bo'lishi kerak.

"Mustaqil ish" tushunchasi ko'p qirrali, shuning uchun tabiiyki, pedagogik adabiyotda u turlicha talqin etilgan. "Mustaqil ish" tushunchasini batafsil ko'rib chiqishni, ta'limning turli pog'onalariga nisbatan uning mohiyatini tahlil etishni muhim deb hisoblaymiz.

Talabalar mustaqil ishi – bu talabalarning ta'lim olish jarayonida auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlarda o'qituvchi bergan vazifasiga binoan, uning rahbarligida, ammo uning bevosita ishtirokida amalga oshiradigan faoliyatidir.

O'quv jarayoni doirasida fanni o'rganish umumiy mehnattalabligi tushunchasiga kiradigan o'quv yuklamasining o'zaro bog'liq uch xil turi mavjud:

- ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot va boshqalar kabi an'anaviy shakldagi auditoriyada bajariladigan ishlar;
- talabalarning mustaqil ishi;
- uchrashuv soatlari, qaysilarida o'qituvchi, bir tomondan mustaqil vazifalarni bajarish bo'yicha individual maslahatlar beradi, ikkinchi tomondan, shu mustaqil vazifalarni nazorat qiladi va natijalarini baholaydi.

Mustaqil ish negizi, tuzilishini asosiy mazmuni bo'lib muammoli yoki bilim orttirish masalasi hisoblanadi. Aynan ushbu masalani mavjudligi butun mustaqil ish jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Talabalarning qo'yilgan masalalarni yechishga qaratilgan mustaqil faoliyati o'quv va kasbiy masalalarni hal etishda, mustaqil bajarishga majburiy tayyorgarlikni nazarda tutadi.

O'quv jarayonining turli shakllarida o'quvchilarning mustaqilligi turlicha ko'rinishda bo'ladi: oddiy takrorlash, tez yozish, tez o'qish usullaridan foydalanib, qattiq algoritmik sxema bo'yicha vazifani bajarishdan tortib, to mustaqil ijodgacha. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'rganishda talabalar mustaqilligi o'z o'quv ishini rejalashtirish, mustaqil o'rganish uchun uslubiy qo'llanma, o'quv adabiyotlarini, qo'shimcha manbalarni tanlash; ko'ruv-namoyish

(demonstratsiya) uskunalarini tayyorlash va ulardan foydalanish; o'qituvchining bevosita yordami va batafsil yo'l-yo'rig'isiz adabiyot va mustaqil talabalar yordamida ixtisoslik bo'yicha alohida o'quv vazifalarni bajarish; barcha bir ishni bajarish; uskunalarini ish qobiliyatini tekshirish, baholash va sozlash; o'quv mashg'ulotlari va ishlab chiqarish amaliyoti ustida maxsus kasbiy vazifalarni mustaqil bajarishlarni namoyon etadi. Talabalar mustaqil ishi ikki ko'rinishda bo'ladi:

auditoriyadagi;

auditoriyadan tashqari.

O'qituvchi tomonidan tashkillashtiriladigan talabalar mustaqil ishi uning nazorati ostida o'tkaziladi, talabalarga guruh yoki yakka (individual) vazifalarni berish va o'qituvchining uslubiy hamda rahbarligi ostida mustaqil bajarilishi ko'zda tutiladi.

Auditoriyadagi talabalar mustaqil ishi juda serqirra bo'ladi va quyidagilarni ko'zda tutadi:

mustaqil ishni bajarish;

nazorat va laboratoriya ishlarini bajarish, sxema va diagrammalarni tuzish;

masalalar ishlash;

ma'lumotnoma, uslubiy va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;

referat, mustaqil ish va taqdimotlar tayyorlash hamda himoya qilish;

bajarilgan ishlar himoyasi;

muhtashab, kollokviumlar, ish o'yinlari, munozara va muhokama;

testlar tuzish va hokazo.

Auditoriyadan tashqari talabalar mustaqil ishi talabalarning auditoriyadan tashqari vaqtda o'qituvchining vazifasiga binoan va uning rahbarligi hamda konsultativ yordamida, ammo bevosita ishtirokisiz bajariladigan rejalashtirilgan o'quv, o'quv-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot ishlari Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning mazmuni uning mavzusi atalgan turlaridan kelib chiqadi:

Kitobdagi egallash uchun:

matn o'qish (darslik, birinchi manba, qo'shimcha adabiyotni);

- matn rejasini tuzish;
- matn tarkibini grafik ko'rinishda ifodalash;
- material(tekst)ni matnlash;
- material (tekst)ndan ko'chirmalar olish;
- mashg'ulot va ma'lumotnoma, adabiyotlar bilan ishlash, me'yoriy hujjatalar bilan tanishish;
- o'quv tadqiqot ishlari;
- audio va video yozuvlar, kompyuter texnikasi va Internetdan foydalanish;

bilimlarni mustahkamlash va tartiblashtirish uchun:

- ma'ruza matnlari bilan ishlash;
- o'quv material ustida ishlash;
- javob rejasi va tezislarni tuzish;
- o'quv materiallarini tartibyalashtirish uchun jadvallar tuzish;
- me'yoriy materiallarni o'rganish;
- nazorat savollariga javob berish;
- matnga analitik ishlov berish (annotasiya yozish, taqriz berish, referat yozish va h.k.);
- seminar va anjumanda chiqish uchun axborot tezislarini tayyorlash;
- referat, ma'ruzalarni tayyorlash, bibliografiya, mavzuli krossvordlar tuzish va h.k;

mahoratni shakllantirish uchun:

- namuna bo'yicha masala va mashqlarni ishlash;
- variantlar bo'yicha masala va mashqlarni ishlash;
- chizma, sxemalarni chizish;
- hisob-grafik (chizma) ishlarni bajarish;
- vaziyatga oid ishlab chiqarish (kasbiy) masalalarni ishlash;
- kasbiy faoliyat turli komponent va xillarini loyihalash hamda modellash;
- kurs ishi (loiyha), BMI larni tayyorlash;
- eksperimental-konstruktorlik ishi;
- tajriba-eksperimental ish.

1.1.2-§. Mustaqil ishning asosiy belgilari

Qabul qilinayotgan axborot bilan talabalarining bajariladigan mustaqil ishning asosiy belgilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- amaliy yoki bilim o'rganadigan masalani, muammoli savol yoki masalalarni ishlash, bajarish uchun sarflanadigan vaqtni mavjudligi;
- u yoki bu harakatni to'g'ri va eng yaxshi yo'l bilan amalga oshirishda o'quvchining aqliy kuchlanishi;
- qo'yilgan masalani yechish jarayonida talabalarining faolligi, mustaqilligi va ongini ko'rsatishi;
- mustaqil ish ko'nikmalariga egaligi;
- talabaning mustaqil o'rganish va amaliy faoliyatini o'zi boshqarishi va boshqarishni amalga oshirishi.

1.1.3-§. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarga uslubiy tavsiyalar

O'quv uslubiy majmuaning kurs bo'yicha "Talabalar mustaqil ishiga rahbarlik qilish" bo'limiga talabalar:

- har bir kurs bo'limlari bo'yicha talabalar mustaqil ishi turlari, matn vazifalari, hisobot materiallariga bo'lgan talablarni batafsil bayoni;
- bajarish muddatlari;
- axborot va ma'lumot materiallari manbasiga bibliografik ma'lumotnomalar;
- hisobot shakllari va nazorat usullari;
- baholash mezonlari.

Talabalar mustaqil ishini tashkillashtirishda uslubiy qo'llanma (ko'rsatma)lar yo'naltiruvchi o'rinni egallaydi. Ular fan materiallarini o'rganish tartibini belgilab berishi, ayrim mavzu va qismlarni o'rganishning o'ziga xos qo'llanmalaridan eng zarur va mohiyatli ma'lumotlarni tanlab olishga yordam hamda odatda qiyinchilik tug'diradigan kurs dasturidagi mavzular bo'yicha tushuntirishlar berishi kerak. Shunda o'qituvchi quyidagi masalalarni hisobga olishi zarur:

1. Talabalarga ortiqcha miqdorda ijodiy vazifalar yuklamalik kerak.

2. Darsdagi ijodiy ishlarni ham auditoriyadan tashqari vazifalarni ketma-ketlikda navbati bilan bajarish lozim.

3. Talabalarga mustaqil vazifalarni bajarishda vazifa maqsadi, bajarish shartlari, hajmi, muddatlari, rasmiylashtirishga talablar bo'yicha aniq yo'l-yo'riq ko'rsatish kerak.

4. Mustaqil ishni joriy nazorat qilish va hisobini olib borish.

Mustaqil, ijodiy ishni o'zlashtirish ko'nikmalari darajasini umumlashtirish, baholash.

1.1.4-§. Chet elda talabalar mustaqil ishini tashkil etishning o'ziga xos ayrim xususiyatlari

Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishni tashkil etish tajribalarini o'rganganda, ichki his bilan (intuitiv ravishda) chet elda talabalar mustaqil ishi qanday olib borilishi qiziqtirishi tabiiy. Masalan, Angliya universitetlarini olsak, auditoriya soatlari haftada atigi 12 soatni tashkil etadi. Bunda guruhda talabalar soni 15-20 kishidan iborat.

Auditoriya mashg'ulotlari jarayonida (nazariy fanlar bo'yicha) quyidagi shakllar qo'llaniladi: qisqa ma'lumot ma'ruzalar, talabalar mustaqil o'rgangan materiallar bo'yicha guruhli va individual maslahatlar; loyihalar muhokamasi, kichik guruh bo'lib ishlash, ish, iqtisodiy, texnologik hujjatlar muhokamasi va h.k., ya'ni o'quv jarayoni negizi bo'lib talaba mustaqil ishi, auditoriya mashg'ulotlari esa ta'lim olishda yordam beruvchi qo'shimcha mexanizmlar hisoblanadi.

Qolgan vaqtda talaba katta miqdorda pedagogik dasturiy vositalariga ega bo'lgan kompyuter zallari va kutubxonalarda bo'lishi kerak; bundan tashqari, u yerda talabalar o'z ma'ruza va loyihalarini kompyuterda yozadilar va tahrir qiladilar, ularning o'quv dasturlarida ko'p narsa ko'zda tutilgan. Chizma taxtalaridan bu yerda foydalanilmaydi, barcha chizma ishlari kompyuterlarda bajariladi. Anliya o'quv muassasalarida (boshqa ko'pchilik Yevropa davlatlari kabi) ta'lim ko'proq aniq va to'g'ri ifoda eta bilishga, ma'ruza va loyihalarda o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki ifodalay olishda, amaliy ishlarni juda aniq bajarishni uzoq vaqt mashq qilishga, barcha texnologik talablarga aniq rioya etishga qaratilgan.

Biz talabani maxsus adabiyotlar, elektron kutubxona va shu kabilariga e'tibor qaratishini talab etuvchi uslublarga qo'shilmaymiz. Biz talaba o'z faoliyati jarayonida foydalangan va mukammallashtirgan axborotnigina to'laroq va chuqurroq o'zlashtira oladi deb hisoblaymiz va hech kim uni bunga majburlay olmaydi, agar o'zi shuni hohlamasa.

1.1.5-§. Talaba mustaqil ishinin maqsadi

Talabaning mustaqil ishi - mutaxassis va tadqiqotchi shakllanishining zaruriy qismidir. Talaba mustaqil ishinin maqsadi - talabani tushungan holda va mustaqil ravishda dastlab o'quv material bilan keyin esa ilmiy axborot bilan ishlashni o'rgatish, kelgusida uzoqsiz malakasini oshirishni o'rganish uchun o'z-o'zini tashkillashtira olish va tarbiyalash asoslarini yaratishdan iborat.

Talabaning mustaqil ishi quyidagi maqsadlarda olib boriladi:

- talabalar amaliy va nazariy bilimlarini tizimlashtirish va mustahkamlash;
- nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;
- maxsus adabiyotlar, me'yoriy, texnik va ma'lumot hujjatlaridan foydalanishni o'rgatish;
- talabalar faolligi va bilim orttirishga iqtidorligini, ya'ni ijodiy tashabbusi, mustaqilligi, mas'uliyatligi va uyushqoqligini rivojlantirish;
- mustaqil fikrlashni, o'z-o'zini rivojlantirish, mukammallashtirish, bilim va ko'nikmalaridan foydalan olish qobiliyatini shakllantirish;
- tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Talabaning mustaqil ishi o'quv jarayonining eng muhim qismi bo'lib, bilim olish faoliyatining ko'nikmalari, mahorati, bilimlari, usullarining shakllanishini belgilaydi hamda ijodiy ishga qiziqish uyg'otadi.

Talabaning mustaqil ishi ikki ma'noda izohlanishi mumkin:

- *birinchidan*, auditoriya, uy yoki axborot-resurs markazi (kutubxona)da o'tishidan qat'iy nazar biror bir muammo yoki masalani yechishda bo'ladigan ijodiy fikrlash jarayoni kabi, talabaning u yoki bu materialni o'zlashtirishi. Axir talaba nafaqat eshitadi va matn yozadi,

balki tahlil qiladi, solishtiriladi, ma'ruzachi bergan materiallarni baholaydi, ya'ni u ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'ladi;

- *ikkinchidan*, individual uy vazifasini ishlash va hokozalarda bo'ladigan fikrlash jarayoni natijasi kabi, referat bitiruv malakaviy ishi (BMI), kurs yoki nazorat ishini yozish. Bu ma'noda talabaniq mustaqil ishi auditoriya mashg'ulotlarini uy va ARM (kutubxona)da davom ettirish, auditoriyada olingan bilimlarni to'ldirish va chuqurlashtirish desa ham bo'ladi.

1.2-§. Kafedra tomonidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish

1.2.1-§. Talabaniq mustaqil ishini tashkillashtirish

Kafedrada talabaniq mustaqil ishi haqida Nizom ishlab chiqilgan. Talaba mustaqil ishi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha mustaqil ishlarning samarsi (muvaqqiyati) uni tashkil etishga bog'liq, talabaniq mustaqil ishini oliy ta'lim muassasada mehnatni ilmiy tashkillashtirish komponenti kabi tashkil etish ma'lum tamoyillari yordamida yo'lga qo'yiladi, uning samaradorligini esa o'quv jarayoniga ta'sir etuvchi ayrim omillar ta'minlaydi.

Tashkil etish tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- barcha mustaqil vazifalarni vaqt va hajm bo'yicha chegaralash;
- talabalar mustaqil ishiniq sharoitlarini ta'minlash va bu ishini boshqarish.

Omillar ikki guruhga ajratiladi: *tashkiliy va uslubiy*.

Tashkiliy omillar guruhiga vaqt byudjeti, o'quv adabiyotlari va o'quv laboratoriya bazasi kiritiladi. *Uslubiy omillarga* rejalashtirish, talaba mustaqil ishi metodlarini va boshqarishni o'rgatish kiritiladi. Omillar talaba mustaqil ishini tashkil etishning turli tomonlarini o'z ichiga olgan, har xil ko'rinishdagi yirik guruhlariga biriktirilgan. Biz talabalarni maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlashni samarali tashkillashtirishni ta'minlovchi ayrim (xususiy, juz'iy) omillarni ko'rsatish kerak deb hisoblaymiz.

O'qituvchilar talabalarga ularning mustaqil ishini tashkil etishda, rahbarlik va nazorat qilishda tegishli yordam ko'rsatishlari kerak. O'qituvchi muntazam ravishda ma'ruza va amaliy kurslar bo'yicha matnlarni, seminar mashg'ulotlarida chiqishga tayyorgarlik ko'rish

rejalarni, referatlar, dokladlarga tezislar, adabiyotlarni referatlash va matnlashni, mashg'ulot vaqtida kurs ishi, vazifalarni bosqichma-bosqich bajarilishini, ko'nikmalarini shakllantirishning mustaqil shakllarini tekshirib boradi. Talabaniq mustaqil ishiga rahbarlik qilishda o'qituvchi va talabaniq yakka tartibdagi (individual) suhbatlari katta ahamiyatga ega.

Muntazam maslahatlar o'qituvchi bilan mustahkam qayta aloqani ta'minlaydi hamda zarur bo'lganda alohida talabaga yoki aniq guruhga nisbatan o'quv jarayonini tashkil etishga tezda tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Alohida e'tiborni talabalarni mashg'ulotlarga tayyorgarligini nazorat qilishga, tavsiya etilgan adabiyotlar bilan ishlash sifatiga qaratish zarur.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida yechiladigan masalalar va maqsadlarni hamda mazmunining o'ziga xosligini hisobga olgan holda talabaniq mustaqil ishi to'rt guruhga bo'linadi.

1-guruh – joriy auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlikni ta'minlovchi mustaqil ishlari;

2-guruh – qidiruv-analitik ishi;

3-guruh – ilmiy ishi;

4-guruh – korxona, tashkilot va kasb-hunar koollejlarida stajirovka (amaliy trening).

O'qituvchilar talabalarni dasturiy materialga oid adabiyotlar ro'yxati, adabiyot bilan ishlash uslubi, referatlash, annotasiyalar yozish bilan, ma'ruza, uslubiy va amaliy mashg'ulotlari, mashg'ulot va chiqishlar rejalari matnlarini, referat va ma'ruzalar tezislarini yozish usullari bilan tanishtiradilar. O'qituvchilar mashq qilish rejasini tuzish, ularni bajarish va tahlil qilish, yig'ilganda ish bo'yicha vazifalar beradilar. Kafedra mustaqil ish masalalari bo'yicha maslahatlar uyushtiradi. Talabalar referatlarini muhokamasiga, tavsiya etilgan adabiyotlar ko'rgazmalariga taklif etiladilar, ko'rgazma qurollarni (albom, stend, jadval, kinofilm, diapozitivlar) namoyish qiladilar. Talabalarga foydalanish uchun bibliografik ro'yxat (yoki

kartoyachkalar), darslik va dastur bo'yicha adabiyot annotasiyalari dasturning ayrim mavzulari bo'yicha matnli ma'ruzalar beriladi.

Kafedra o'qitish va mashq qilish uslublari masalalari bo'yicha munozaralar tashkil etib, ularga talabalar taklif etiladi. Seminar va amaliy darslarda talabalar nazorat va amaliyotning eng yangi ma'lumotlar bo'yicha referatlarni tayyorlab, keyin ularni muhokama qilishadi. O'qituvchilar talabalarga o'tkazilgan muhokamalar ko'nikmalarini o'rgatadi.

Talabaning mustaqil ishini shartli ravishda majburiy va nazoratli ajratish mumkin. Majburiy mustaqil ish talabalarni joriy auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlikni ta'minlab beradi. Nazorat qilinadigan mustaqil ishlar esa talaba bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, o'quv fanining masalalari bo'yicha analitik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Talabaning mustaqil ishini tashkillashtirish institut o'quv-uslubiy bo'limi, dekanat, kafedra, fan o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi:

O'quv-uslubiy bo'lim:

- mustaqil ish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi;
- institutning mustaqil ishini tashkillashtiruvchi tarkibiy bo'linmalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining me'yoriy hujjat va tavsiyalari haqida xabardor qiladi;
- fakultet va kafedralarga mustaqil ishini tashkil etishda uslubiy yordam ko'rsatadi;
- fakultet va kafedralarda mustaqil ishini rejalashtirish va tashkillashtirishni nazorat qiladi va mustaqil ishini nazorat qilishga soatlar ajratish haqida buyruq tayyorlaydi;

Fakultet dekanlari, fakultet uslubiy komissiyalari bilan birgalikda:

- kafedra tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish talab va shartlarini to'g'riligini aniqlaydilar;
- o'quv materiallarining qaytarilishiga yo'l qo'ymaydilar;
- o'quv materiallarini tutash nazariy kurslar bilan, nazariy bilimlar va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liqligini belgilaydilar;

- ixtisoslikni hisobga olgan holda mustaqil ishini bajarishni nazorat qilish uchun zarur bo'lgan soatlar sonini aniqlaydilar.

Fakultet dekanatlari:

- fakultetda seminarlar bo'yicha mustaqil ish rejasini tuzadilar;
- jami fakultetlar uchun barcha fanlar bo'yicha hajmi va muddatlarini keltirgan holda mustaqil ishlarning grafiklarini tuzadilar (har bir fan bo'yicha vazifalar hajmi aniqlanadi; seminar haftalari bo'yicha bir maromda hamma bajariladigan ishlar taqsimlanadi; mustaqil ish uchun vazifalarni axborot va uslubiy ta'minlash bo'yicha bajariladigan ishlar belgilanadi);

- o'qituvchi va talabalarni mustaqil ish grafiklari bilan tanishtiradilar;

- talabalar dars jadvalida mustaqil ish uchun alohida kun ajratib berishlari mumkin;

- tarkibidagi kafedralarning mustaqil ishini tashkil etishi bo'yicha faoliyatni nazorat qiladilar;

- mustaqil ishning grafiklari bajarilishini tekshiradilar.

Kafedralar:

- talabalar mustaqil ishining asosiy yo'nalishlari, mazmuni, shakli va uslublarini belgilaydilar;

- o'qitiladigan fanlarni darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganliklarini tekshirib boradilar;

- o'quv rejaga ko'ra har bir fan bo'yicha mustaqil o'rganiladigan material hajmi, aniq mazmunini belgilaydilar;

- talabalar mustaqil ishining sifati va tashkil etishni nazorat qiladilar;

- talabalar mustaqil ishining samaradorligini tahlil etadilar, tashkillashtirish usullariga tuzatish kiritadilar;

- o'quv materiallarini uslubiy adabiyotlarda (o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va h.k.) samarali o'zlashtirishga imkon beradigan ko'rinishda berish usullarini tavsiya etadilar;

- fanga o'quv rejasida keltirilgan soatlar hisobiga ilmiy-tadqiqot asoslari bo'yicha talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish kurslarini ishlab chiqadilar;

-har bir fan bo'yicha o'quv (ishchi) dasturlariga mustaqil ish uchun savollar kiritadilar;

-har bir kurs talabalari uchun, fanlar bo'yicha nazorat shakli va ish bajarish muddatlarini ko'rsatgan holda, mustaqil ishning grafisini tuzadilar;

-mustaqil ishni tashkillashtirishning samaradorligini tahlil etadilar, uni faollashtirish va mukammallashtirish maqsadida tuzatishlar kiritadilar;

-talabalarda mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirish monitoringini amalga oshiradilar hamda ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadilar;

-kafedralarni o'quv va ilmiy adabiyotlar, vaqtli nashrlar, o'quv materiallari va qo'llanmalari, zarur texnika bilan ta'minlash ishlarini olib boradilar;

-zarur o'quv-uslubiy va ma'lumotnoma materiallaridan hamma foydalana olishini ta'minlaydilar;

-talabalarga o'quv-uslubiy adabiyotlar, zamonaviy dasturlarni mavjudligi haqida ma'lumot beradilar.

Kafedralar ishlab chiqadilar:

-fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini, fanlar o'quv (ishchi) dasturlarini, qo'llanmalar, darsliklar, materiallarini ham bosma, ham elektron variantda;

-mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar;

-mustaqil ish uchun vazifalar;

-referat va ma'ruzalar mavzusi;

-kurs ishi va loyihalar, ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar;

-bitiruv malakaviy ishlar mavzulari va ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar;

-joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON) va yakuniy nazorat (YAN) uchun savollar;

-individual vazifalarni rasmiylashtirish namunalari;

-laboratoriya ishlari, seminar vazifalari va hokazolarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma va yo'riqnomalar.

O'qituvchilar:

-mustaqil ishga ajratilgan soatlar me'yorida vazifalar mavzusi va turi, talabalar mustaqil ishi natijalarini taqdim etish muddatlarini belgilaydilar;

-qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishining uslubiy ta'minotini tayyorlaydilar;

-Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar o'tkazadilar;

-talabalarni oliy ta'lim muassasalarida ta'lim shakli va usullari tizimi bilan, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, mustaqil ishning uslubiyati, bajariladigan mustaqil ish sifatini baholash mezonlari bilan tanishtiradilar;

-talabalarga mustaqil ishning maqsadi, vositalari, mehnattalabligi, bajarish muddatlari, nazorat shakllari haqida ma'lumot beradilar;

-javoblar, hisoblar, yechimlarning eng maqbul variantini izlash, ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini egallash bo'yicha bilimlarni shakllantiradilar.

Mustaqil ishning alohida turlari hajmini aniqlashda jadvalda ko'rsatilgan taxminiy mehnattalabligiga amal qilinishi kerak. Fan bo'yicha talabalar mustaqil ishining turi va nazorat muddati, tavsiya etilgan adabiyot, uslubiy materiallar haqida ma'lumotni o'qituvchi talabalarga birinchi auditoriya mashg'ulotlarida berishi, kafedraning e'lonlar taxtasiga yozishi, institut saytiga kiritishi lozim.

1.2.1-jadvalda talabalar mustaqil ishi har xil turlarining taxminiy mehnat talabligi keltirilgan.

1.2.1-jadval

Talabalar mustaqil ishi har xil turlarining taxminiy mehnat talabligi

Mustaqil ish turi	Mehnat talabligi
Ma'ruza materialini o'rganish	Ma'ruza soatlaridan 20 % gacha
Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik	Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarning 50 % gacha
Kurs loyihasi	40 soat
Kurs ishi	30 soat
Referat yoki taqdimot	10-15 soat
Hisob, hisob-grafik ishi	15 soatgacha
Amalgama tayyorgarlik	Jami auditoriya mashg'ulotlarining 25 % gacha

1.2.2-§. Talabalar mustaqil ishini rejalashtirish

Ta'lim muassasasi tomonidan ishchi o'quv rejalar ishlab chiqilayotganda quyidagilar belgilanadi:

- jami nazariy ta'lim bo'yicha auditoriyadan tashqari mustaqil ishga ajratilgan umumiy vaqt miqdori (jami nazariy ta'limga ajratilgan vaqtning maksimal miqdori bilan majburiy o'quv yuklamasiga, fakultativ fanlarga, nazariy ta'lim bo'yicha maslahatlarga ajratilgan vaqt orasidagi farq kabi);

- talabalarining bilim saviyasi darajasi, sikl fanlari bo'yicha o'qitiladigan material hajmi va murakkabligini hisobga olgan holda, fanlar sikli bo'yicha auditoriyadan tashqari mustaqil ishga ajratilgan vaqt miqdori;

- talabaning tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablarni hisobga olib, ularning o'quv materialini o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda o'quv fanining auditoriyadan tashqari mustaqil ishga ajratilgan vaqt miqdori.

Talabalar mustaqil ishi grafigiga majburiy va tavsiya etiladigan mustaqil ishlar kiritiladi. Individual reja bo'yicha ishlaydigan talabalar uchun individual mustaqil ish grafigi tuziladi. Talabalar mustaqil ishi grafiklarini ishlab chiqish va tuzish o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishga rejalashtirilgan vaqt miqdorini o'qituvchi belgilaydi. Aniq mavzuli o'quv vazifasini mustaqil bajarishga sarflanadigan vaqt, amaliy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, quyidagilarga asoslanib o'qituvchi tomonidan belgilanadi: talabalar tomonidan auditoriya mustaqil ishini bajarishini kuzatishlar, u yoki bu vazifaga ketgan vaqtni talabalardan so'rab bilish, o'qituvchi talabalarining bilim va mahorati darajasini hisobga olgan holda o'zining vazifalarini bajarishiga sarflangan vaqt xronometraji.

O'quv fani bo'yicha vazifalar majmui uchun auditoriyadan tashqari mustaqil ishga ketgan vaqt hajmi aniqlanadi, odatda, u shu fanga ajratilgan o'quv yuklamasining 29-32 % ni tashkil etadi. Sikl komissiyasi majlislarida siklga kiradigan har bir fan uchun o'qituvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ish hajmiga oid

takliflari ko'rib chiqiladi. Zarur bo'lganda, o'quv fani bo'yicha o'rganilayotgan material hajmi va murakkabligini hisobga olib tuzatishlar kiritiladi hamda mazkur fanlar sikliga ishchi o'quv rejasida ajratilgan talabaning maksimal o'quv yuklamasini jami miqdorida barcha fanlar uchun auditoriyadan tashqari mustaqil ishga vaqt ajratiladi.

Talabalar mustaqil ishi har bir fan bo'yicha barcha o'quv vazifasi turlarini bajarish uchun vaqt me'yori aniqlash asosida o'quv rejasiga binoan rejalaniadi.

Talabalar mustaqil ishi hajmi va uni turlari bo'yicha taqsimlanishi (individual mashg'ulotlar, talabaning o'zi uyushtiradigan mustaqil ish) fanlarning kalendar-tematik rejalarida ko'rsatilishi kerak.

Talabalar mustaqil ishi bilan bog'liq vazifalar turlari, hajmi va mavzusi vaqt byudjetini aniqlagan holda, fanlarning o'quv rejasi va dasturlariga binoan kafedralar tomonidan belgilanadi hamda mustaqil ish bajarilishini yo'lga soluvchi uslubiy materiallarda aks ettiriladi. Talabalar mustaqil ishga rejalangan vaqt miqdori 54 soatli o'quv haftasi chegarasidan chiqmaydigan umumiy vaqt limitiga asoslanib belgilanadi.

Talabalar mustaqil ishini muvaffaqiyatli bajarish uchun kursni o'rganishga uslubiy tavsiyalar (mustaqil o'rganuvchi) zarur bo'ladi. Tavsiyalar ishning batafsil algoritmi, muammoli bahslar uchun mavzular, mustaqil o'rganishga adabiyotlar, vazifa va kompyuterda test va taqdimotlarni bajarish bo'yicha maslahatlar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va testlari keltirilgan nazariy material, amaliy vazifalar, glossariy va hokazolardan iborat bo'lishi kerak.

Mustaqil ishga tavsiyalarni mavjudligi talabaning o'z vaqtidan samarali foydalanish, individual tezlik va uslubda o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Talabalar mustaqil ishi vazifalarida bu ish talabani mustaqil ta'lim olishiga yo'naltirilgan, uni yangi bilim olishiga qiziqish uyg'otadigan, ijodiy faollikka undaydigan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u (mustaqil ish) talabani yetakchilik qilish uchun zarur bo'lgan soha bo'yicha bilimdonligini shakllanishiga, o'qituvchi va talaba orasida sherikchilik munosabatlarini kelib chiqishiga imkon top'dirishi kerak. Joriy kalendar-tematik rejalar asosida o'qituvchi

rahbarligida bajariladigan talabani mustaqil ishi individual mashg'ulot uchun dars jadvalini dekant va institutning o'quv bo'limi tuzadi.

Kafedra va o'qituvchi tomonidan talabalar mustaqil ishi rejasini tuzish quyidagilar bilan amalga oshirilishi kerak:

-ta'lim usullarini optimal variantlarini tanlash, o'quv jarayoniga o'qituvchi mehnati samaradorligini oshiruvchi yangi ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, talabani o'ziga qulay vaqtda o'quv materiallari bilan tanishishga imkon beruvchi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

-kompyuterda testlardan foydalanish;

-seminar va amaliy mashg'ulotlar, talabalar ilmiy tadqiqotlari va malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyotlarini o'tkazish uslublarini takomillashtirish, chunki o'quv ishining aynan shu turlari talabalarni kasbiy (professional) masalalarni mustaqil bajara olishga tayyorlaydi;

-masalani yechish, izlash, material tanlashda talaba rolini oshirishga xizmat qiladigan kurs va bitiruv malakaviy ishlari tizimini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish.

Talabalar mustaqil ishi uslubiy ta'minlanishini takomillashtirish yo'llari o'qituvchilar shaxsiy rejalarida aks ettirilishi kerak.

To'g'ri tashkillashtirilgan talabalar mustaqil ishi quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

-ta'lim jarayonini yanada sifatini oshirish va tezlashtirish;

-tanlangan kasbga qiziqish hosil qilish hamda uning o'ziga xos tomonlarini o'rganishga yordam berish;

-talabani ijodiy yondoshishga, izlanishga undash;

-ta'limga nisbatan differensiyalashtirish (tabaqalashtirish) tomondan yondashishni hayotga tadbiq etish.

1.2.3-§. Mustaqil ish turlari

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra mustaqil ishni ikki qismga ajratish mumkin:

1)o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan va o'quv-uslubiy majmualarda aniq ko'rsatilgan;

2)o'qituvchining bevosita rahbarligisiz talabani o'zi mustaqil xohishiga ko'ra tashkil etiladigan mustaqil ish.

Oliy ta'lim muassasalaridagi mustaqil ishning turlariga quyidagilar kiradi:

- asosiy auditoriya mashg'ulotlari vaqtidagi bilim olish jarayoni;
- seminar, uslubiy va amaliy imashg'ulotlarga tayyorgarlik, chiqishga matn va rejalar tuzish;

- o'quv qo'llanmalarda yetarlicha yoritilmagan o'quv dasturlarining asosiy mavzularini mustaqil ravishda chuqurroq o'zlashtirish;

- rejalashtirilgan maslahat shaklida kompyuter xonalarida o'qituvchi nazorati ostida bajariladigan mustaqil ish;

- o'quv va ijodiy shakldagi uy vazifalarini bajarish kabi auditoriyadan tashqari talabalar mustaqil ishi (shu jumladan elektron resurslari bilan);

- mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etilgan aniq belgilangan o'quv modullarini mustaqil o'rganish;

- referat, kurs va amaliy ishlarni yozishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan materiallarni izlash bo'yicha talabani mustaqil ishi;

- o'quv-tadqiqot ishlari;

- ilmiy-tadqiqot ishlari;

- talabalar ilmiy jamiyati, talabalar ilmiy to'garaklarida ilmiy tadqiqot ishlar uchun olib boriladigan tajriba va kuzatishlar jarayonida olingan tajribaviy ma'lumotlarni ishlash va tahlil qilish;

- amaliyot davridagi mustaqil ishlar.

2-BOB. TALABALAR MUSTAQIL ISHINING SHAKLLARI

2.1-§. Talabalar mustaqil ishining o'quv-uslubiy ta'minoti

2.1.1-§. Talabalar mustaqil ishi turlari va shakllari

Talabalar mustaqil ishlarining shakllari:

1. Matnlashtirish;
 2. Adabiyotlardan referat tayyorlash;
 3. Kitob va maqolalarni annotasiya qilish;
 4. Izlash-tadqiqot tavsifiga ega bo'lgan vazifalarni bajarish;
 5. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish;
 6. Ma'ruza materiallari bilan ishlash: ma'ruza matnlarini ishlab chiqish, matn xoshiyalarida atamalar bilan ishlash, tavsiya etilgan adabiyotlardan matnни to'ldirish;
 7. Seminar ishida ishtirok etish: vazifa, ma'ruza, axborotlarni tayyorlash;
 8. Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar: o'qituvchining uslubiy ko'rsatmalari hamda yo'riqnomalarga asosan vazifani bajarish, natija olish;
 9. Ilmiy-tadqiqot ishlari, kurs va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish;
 10. Yozma nazorat ishi;
 11. Amaliyot davrida material to'plash vazifasini bajarish.
- Quyidagi 2.1.1-jadvalda Talabalar mustaqil ishi turlari va shakllari keltirilgan.

2.1.1-jadval

№	Mustaqil ish turlari	O'qituvchiga ko'rsatmalar
1.	Matnlash	Tanlab tekshirish
2.	Adabiyotlardan foydalangan holda referat tayyorlash	Mavzularni ishlab chiqish va tekshirish
3.	Izlash ishlarini bajarish	Vazifalarni ishlab chiqish, izlash holatlari, maxsus seminarlar yaratish, kartoteka tuzish
4.	Maqola, kitolarga annotasiya yozish	Annotasiya namunalari, tekshirish
5.	Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish	Ishlab chiqilgan adabiyot bo'yicha suhbat, ish rejasini tuzish, axborot olish uslublarini ishlab chiqish
6.	Ma'ruza matnini tavsiya etilgan adabiyot va	Ma'ruza oxirida o'z rejasini tuzishni taklif etish

	manbalardan foydalangan holda to'ldirish	
7.	Seminarlarda ishtirok etish	Seminarlarda chiqishlarga tayyorlanish, referatlar tayyorlash, bilimlarni tekshirish
8.	Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar: yo'riqnoma va uslubiy ko'rsatmaga asosan vazifa bajarish	Harakatlar algoritmini tuzish, natijaga erishish darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash
9.	Kurs va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda ilmiy-tadqiqot ishlari	Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini ishlab chiqish, maslahat berish
10.	Nazorat ishi	Nazorat ishlari mavzularini ishlab chiqish, tekshirish
11.	Amaliyot davrida material to'plash bo'yicha vazifani bajarish	Vazifalarni ishlab chiqish, amaliyot hisobotlarini tekshirish

2.1.2-§. Mustaqil ish bosqichlari

Talaba mustaqil ishining samaradorligini ta'minlovchi, bajarilishi sharti-bu uni tashkil etish va shtkazishda amal qilish. Talaba mustaqil ishini bir necha bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – tayyorlash bosqichi. U o'z ichiga talaba mustaqil ishi uchun vazifa va mavzularni ajratib ko'rsatgan holda ish dasturini tuzishni, semestr davomida talabalar mustaqil ishini rejalashtirish, o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash, talabalar saviyasi darajasini aniqlashni oladi.

Ikkinchi bosqich – tashkiliy. Bu bosqichda talabalar individual va guruhli ishlarining maqsadi; kirish ma'ruzasi o'qiladi, individual yoki guruhli yo'naltiruvchi ma'ruzalar, ularda talabalar mustaqil ishi shakllari va ularni nazorat qilish usullari tushuntiriladi, uning oraliq natijalarini taqdim etish shakllari va muddatlari belgilanadi.

Uchinchi bosqich – asoslash-faoliyat bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchi guruhli va individual faoliyatni ijodiy asoslash, oraliq natijalarini tekshirish, o'z-o'zini tekshirish va nazorat qilish, tanlangan maqsadga binoan o'zaro tekshiruv va o'zaro almashinuvlarni ta'minlashi kerak.

To'rtinchi bosqich – nazorat-baholash bosqichi. Bu individual va guruhli hisobotlarni baholashdan iborat. natijalar bitiruv malakaviy ishi

yoki kurs ishi, referat, ma'ruza, sxema, jadval, og'zaki axborotlar, andoza hisobot va boshqalar (fan yoki ixtisoslikka ko'ra) taqdim etilishi mumkin. Talabalar mustaqil ishining nazoratini oraliq va yakuniy testlash, auditoriyada yozma nazorat ishlarini yozish, kollokviumlar, oraliq sinov va boshqalar yordamida amalga oshirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishi bosqichlari:

1. Tavsiya etilayotgan adabiyotlarni to'plash;
2. Matnlanishi kerak bo'lgan masalalar bilan tanishish;
3. O'rganilgan adabiyotlar bo'yicha sxema va jadvallar tuzish.

Talabalar mustaqil ishi uchun o'quv vositalari majmuasi

Talabalar mustaqil ishi uchun o'quv vositalari majmuasi quyidagi bo'limlardan iborat:

1. O'quv-uslubiy majmua;
2. Didaktik material;
3. Elektron ma'ruzalar matni va darsliklari;
4. Masalalar to'plami, testlar, nazorat vazifalar;
5. Videomateriallar, CD, DVD;
6. Internet resurslar.

2.1.3-§. Talabalar mustaqil ishining samaradorlik shartlari

Talabalar mustaqil ishi samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Talabalar mustaqil ishiga vazifani semestr (o'quv yili) boshida berish;
2. Hajmli auditoriya va mustaqil ishni bir-biri bilan to'g'ri mujassamlashtirishni ta'minlash;
3. Auditoriya va undan tashqarida talabalar ishlarini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish;
4. Mustaqil ishning jarayonini ijodiy jarayonga aylantirish uchun talabalarni zarur uslubiy materiallar bilan ta'minlash;
5. Mustaqil ishni yuritish va uni sifatli bajarganligi uchun talabani rag'batlantirish choralarini nazorat qilish;
6. Faol ta'lim usullaridan foydalanish;
7. Talabalar mustaqil ishiga beriladigan vazifalarni individualligi va o'quv-uslubiy qo'llanilishini ta'minlash;

8. Joriy va oraliq nazorat shakllarini ishlab chiqish;

9. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahat vaqtini belgilash.

Bundan tashqari, o'qituvchi talaba e'tiborini quyidagi maqsadlarga qaratishi lozim:

- a) uy vazifalarini bajarishga;
- b) bajarish muddatlariga rioya qilishga;
- v) tayyorlanishga va javob berishga.

Talabalar mustaqil ishi samaradorligiga erishishning muhim vositalari – bu, birinchidan, butun semestr davomida talabaning muntazam ishlashi; ikkinchidan, uning olgan bilimlarini muntazam tekshirilishi.

O'quv jarayonini talabalar mustaqil ishi ulushini orttirishga o'tkazish va uning samaradorligini ko'tarish quyidagilarni taqozo qiladi:

- mustaqil ishga soatlar sonini oshirish va auditoriya mashg'ulotlari sonini qisqartirishni;
- semestr boshida fanlar bo'yicha talabalar mustaqil ishi uchun barcha vazifalar majmuini berish;
- o'quv-uslubiy ta'minotni yaratish (o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish, ularni elektron variantlari va boshqalarga joylashtirish);
- zarur moddiy-texnika bazasini yaratish;
- uzluksiz nazoratni tashkil etish, o'qitiladigan fanlar bo'yicha talabalar mustaqil ishi bajarilishini baholash va bahoni maxsus qaydnomaga qo'yish;

• talabalar mustaqil ishi natijalarining semestr yakunlarida YAN ga kirish uchun ruxsat berishga bog'liqligi;

• fan bo'yicha talabaga semestr oxirida yakuniy nazoratda qo'yiladigan ball, jami fan bo'yicha qo'yiladigan ballning 30 % ni tashkil etadi (70 % - semestr davomidagi ishi uchun, shu jumladan mustaqil ishi uchun ham).

Oliy ta'lim muassasa fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan o'quv-uslubiy va moddiy-texnik ta'minotni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasa Axborot resurs markazi (kutubxona) ta'minlaydi;

-o'quv jarayonini zaruriy adabiyot va axborotlar bilan (fanlarning o'quv rejasi va ishchi o'quv dasturlariga muvofiq o'quv, uslubiy, ilmiy, davriy, ma'lumot va badiiy adabiyotlarning ARM (kutubxona) fondini to'ldiradi);

-asosiy axboroto bilim manbalari, ma'lumotlarning axborot ta'minotidan foydalanish huquqini, shu jumladan bibliografik ta'minotidan, Internetga kirish imkonini.

Kafedralar:

-kafedrani ilmiy va o'quv adabiyotlar, davriy nashrlar, o'quv materiallari va qo'llanmalar, zaruriy texnika bilan to'ldirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi;

-barcha zaruriy o'quv-uslubiy va yordamchi materiallardan foydalanish huquqini ta'minlaydilar;

-talabalarga o'quv-uslubiy adabiyotlar, zamonaviy dasturlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar.

Kafedralar ishlab chiqadilar:

-Davlat ta'lim standartiga muvofiq fanning o'quv-uslubiy majmuasi, fanning ishchi o'quv dasturlari, qo'llanma, ko'rsatma, material va darsliklarni (elektron va nashrdan chiqqan variantlarini);

-uslubiy tavsiyanomalarni, mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha o'rganiladigan mavzularni maqsadli dastur (ko'rsatma) va asosli tavsiflaridan tashkil topgan qo'llanmalarni;

-mustaqil ish uchun vazifalar tizimini;

-referat va ma'ruzalar mavzularini;

-kurs ishi va loyihalari mavzularini, ularni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalarni;

-bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalarni;

-o'rganiladigan mavzular bo'yicha strukturalogik (tuzilmaviy) va grafologik (chizmaviy) sxemalarni;

-nazariy savollar va o'z ustida ishlash uchun savollarni;

-olingan vazifalarni amaliy mashg'ulotlarda bajarish uchun talabalar faoliyatining maqsadli algoritmini;

-JN, ON va YAN uchun savollarni;

-shaxsiy vazifalarni rasmiylashtirish namunalarini;

-laboratoriya ishlari, semestr vazifalari va shunga o'xshash topshiriqlarni bajarishga yo'riqnoma va uslubiy ko'rsatmalarni.

Oliy ta'lim muassasaning tahririy-nashriyot va bosmaxonasi uslubiy, o'quv va ilmiy adabiyotlarni ko'paytirish ehtiyojini ta'minlashi lozim.

Talabalarning mustaqil ishini uslubiy ta'minoti – mustaqil ishning talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishining shakli va turlari, maqsadi va har birining vazifasi, bajarilish muddati va ular ustidan nazorat shaklidan tashkil topgan grafigini tuzish demakdir.

Har bir fan ishchi dasturda ko'rsatilgan bo'lim va mavzularni mustaqil o'rganish, kurs ishi (loyiha), referatlarni yozish, hisob-grafik ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmaga ega bo'lishi lozim.

Talabalar mustaqil ishining samaradorligi talabalning tegishli uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Davlat ta'lim standartlari 2001 yilda kuchga kirgan bo'lsa ham, auditoriyadan tashqaridagi talabalar mustaqil ishining uslubiy ta'minoti hali yetarli darajada emas, shu bilan birga, nafaqat miqdoriy, balki sifati bo'yicha ham. Oliy ta'lim muassasalarida sodir bo'lgan bu inqiroz holati talabalarni markaziy nashriyotlarda chiqqan kerakli adabiyotlar bilan ta'minlash imkonini bermaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, vaziyatdan chiqish uchun kengaytirilgan ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalarni nashr qilish, tarqatma materiallarni berish zarur. Kafedraning o'quv-uslubiy ishlar bo'yicha yillik rejasi shunday tuziladiki, nashr qilinadigan uslubiy ko'rsatma va o'quv qo'llanmalardan ham mustaqil, ham auditoriya ishlarini tashkil etishda muvaffaqiyatli foydalanish imkoni bo'lsin. Ammo mavjudlarining soni va chiqariladigan adabiyotlar adadi shubhasiz yetarli emas. Bunda talaba foydalanish huquqiga ega bo'lgan muassa ko'paytiradigan texnika hamda yangi axborot texnologiyalari va kuchli axborot va kuchli axborot manbai – Internet yordam berishi mumkin.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llashga asoslangan yangi ta'lim shakllarining rivojlanishi har xil multimedia mahsulotlarini paydo bo'lishiga olib keldi. Elektron o'quv qo'llanmalarni qo'llashning

asosiy maqsadi – o'qitish samaradorligini oshirish – tahsil oluvchining motivi (vaji)ni kuchaytirish va uning ham ong, ham shakllanmagan ong darajasida bilish faoliyatini axborotning interfaoligi, strukturizatsiyalash va vizualizatsiyalash orqali faollashtirishga yo'naltirilgan har xil usullar bilan erishiladi.

O'quv jarayonida elektron o'quv mahsulotlarining quyidagi turlaridan foydalanish taqdim etiladi: ma'ruza namoyish (demonstratsiya)lari, videofilmlar, elektron darsliklar. Ma'lumki elektron qo'llanmalar modulli tamoyil asosida quriladi va matn, audio qismlarni, statik grafik, animatsiya, asl videoyozuvlar hamda interfaol bloklarni o'z ichiga oladi. Materialni tashkillashtirish shakli foydalanuvchiga kursni o'zlashtirish ketma-ketligini mustaqil tanlashni taqdim etadi: u yoki bu bo'limini qaytadan ko'rish imkonini beradi. Elektron o'quv qo'llanmalardan ma'ruza kontekstida ham talabalarning mustaqil ishi uchun materiallar sifatida ham foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiy sharoit va bosmaxona ta'minot imkoniyatlarini e'tiborga olib, ehtimol, elektron nashrlardan foydalanishni tavsiya qilish lozimdir. Shu bilan birga, talabalar bilan bunday usulda muloqot qilishga o'tish elektron darsliklar, ularni mustaqil yaratish uchun qobiq (obolochka), o'rgatuvchi dasturlarni yaratish va xarid qilishni talab etadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayrlashda ko'pgina kafedralarda elektron darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish tajribasi bor, ular talabalarga qulay vaqt va u uchun odatiy suratda mustaqil bilim, mahorat, ko'nikma egallash imkonini beradi. JN, ON va YAN lar uchun elektron ko'rinishda talabalar foydalanishi uchun nazorat tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish sifatida materiallar bazasi tuzilmoqda. Aynan shu yo'nalishni rivojlantirish juda ham istiqbolli ko'rinadi.

Talabalarning muvaffaqiyatli mustaqil ishi uchun kursni o'qishga uslubiy tavsiyanoma (mustaqil o'qish uchun qo'llanma)lar kerak bo'ladi. Tavsiyanomalar ishning to'liq (batafsil) algoritmi, muammoviy munozaralar uchun mavzular, mustaqil o'qish uchun adabiyotlar, vazifa hamda kompyuter test va taqdimot (prezentatsiya)larni bajarish uchun

maslahatlar, o'z-o'zini tekshirish uchun savol va testlari bilan nazariy material, amaliy masalalar, glossariy va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, auditoriyadan tashqari talabalar mustaqil ishini tashkil etish sohasida ta'lim standartining talablarini bajarish uchun zarur:

- talabalar mustaqil ishi ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalar mustaqil ishining bajarilishini nazorat qilish uchun o'qituvchi va talabalarning auditoriyadan tashqari ishining me'yorlarini ishlab chiqish;
- maxsus o'quv-uslubiy adabiyotlar va ularning elektron variantlarini nashr etish;
- mavjud elektron nashrlardan foydalanish va shaxsiylarini yaratish.

2.1.4-§. Talabalarning ilmiy mustaqil ishi

Ilmiy mustaqil ish talabalar tomonidan o'qish jarayonida standartni o'zlashtirish va mustaqil o'qish, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish hamda jamoa va shaxsiy ijodiy faoliyat orqali oliy kasbiy (professional) ma'lumotli mutaxassilarni tayyorlash saviyasini oshirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy mustaqil ishni tashkil etish va o'tkazishdagi talabalar, qoidaga ko'ra, me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topadi va oliy ta'lim muassasaning maxsus Nizomlari bilan aniq belgilanadi (tartibga solinadi).

Talabalarning ilmiy mustaqil ishi ularning o'quv faoliyatida birinchi kursdan boshlab rivojlanadigan mahorati va ko'nikmalariga asoslanadi. Ilmiy mustaqil ish oliy ta'lim muassasada o'zining tashkillashtirish va mazmuni bo'yicha o'quv-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'linadi.

2.2-§. Oliy ta'lim muassasasida talabalarning ilmiy mustaqil ishining tarkibiy tuzilmasi

2.2.1-§. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy mustaqil ishlarining shakllari

Ilmiy mustaqil ishda bosh o'rin, ayniqsa kichik kurslarda, o'qituvchilarga tegishli bo'ladi. Talabalarning o'qish va ilmiy ishda

harakat qilishi uning hissasi va mustaqillik darajasini oshiradi, o'qituvchi rahbar va tashkilotchilikda tutgan o'rnidan asta-sekin maslahatchi va yordamchi vazifasiga o'ta boshlaydi. Ilmiy mustaqil ish tashkiliy tomondan har xil o'tishi mumkin:

a) o'qituvchi (ilmiy rahbar)ning rahbarligi ostida u talabalar mustaqil ishining reproduktiv (esda qolgan narsani tiklash) va mustaqil saviyasiga mos keladi;

b) talabalar ilmiy jamiyati, ilmiy to'garak, ilmiy guruh, ilmiy jamoasi va boshqalar doirasida;

v) kafedraning o'qituvchilari bilan individual (shaxsiy) hamkorligida, u talabaning mustaqil saviyasidan ilmiy saviyasiga o'tishda bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Aniq shakllantirilgan msala, muammo talabaning ilmiy mustaqil ishiga rahbarning doimiy qiziqishi uning ishini jadalligi va sifatini rag'batlantiradi (kafedralardagi to'garak ishiga har xil saviyadagi ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda kurs va bitiruv malakaviy ishlarni yozish va shukabilarda qatnashishi).

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ilmiy mustaqil ishlarining ma'lum bir shakli yo'lga qo'yilgan.

Chunki ilmiy mustaqil ishga qatnashish talabaning kasbiy (professional) ta'limining tarkibiy qismi hisoblanadi, muvaffaqiyat ko'rsatkchilaridan biri bilim olish faoliyati va mustaqil ta'limi natijasida u rivojlantiradigan shakllangan mahorat va ko'nikma hisoblanadi:

a) axborot manbalarini qidirish mahorati, bitta (bir nechta) manbadan kerakli axborotni tanlash, tanlangan (tavsiya etilgan) nashrlar va boshqalarga mo'ljall olish hamda ularni har xil manbalar – darlik, uslubiy material, elektron o'quv mahsulot, Internet resurs va boshqalardan olib, mazmuniy qayta ishlash;

b) axborotlarni har xil yozuv (reja, ma'ruza matni, referat, xabarnoma, qisqacha mazmuni va boshqalardan keyinchalik foydalanish uchun yozma qayd qilish mahorati va ko'nikmasi;

v) tadqiqot natijalarini ma'ruza qilish va ularni chop etishga tayyorlash mahorati.

Talabalar bilan mustaqil ilmiy-tadqiqot ishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) talabalarni o'qitish hamda ijodiy, ilmiy va pedagogik mehnatga tayyorlash hamjihatligiga asoslanagn, ularning o'quv mashg'ulotlari, amaliyot va ilmiy-tadqiqot ishlarining integrasiyasi;

2) talabalarda ilmiy ijodga qiziqishni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot masalalari mustaqil yechish metodikasi va usullari, ilmiy va pedagogik jamoalarda ish ko'nikmalarga o'rgatish, talaba yoshlarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini ochish va amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish; talabalarda ijodiy va kasbiy ong va mustaqilikni rivojlantirish; nazariy va amaliy bilimlarga o'rgatishda olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash;

3) eng iqtidorli va qobiliyatli talabalarni aniqlash, ularning ijodiy va intellektual potensialidan nazariy va amaliy o'qish, tarbiyaning dolzarb masalalarini yechish, fanni rivojlantirish hamda eng qobiliyatli va o'zlatiruvchi talabalar orasidan institutning ilmiy-pedagogik va ilmiy xodimlar zahirasini tayyorlash uchun foydalanish;

4) oliy ta'lim muassasalararo, ham davlat ichida, ham yaqin va uzoq xorijiy davlat va hokozalarda ilmiy aloqalarni rivojlantirish.

Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishining asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- oliy ta'lim muassasaning rejali ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda laboratoriya, ilmiy ish to'garaklari doirasida qatnashish;

- o'quv-tarbiyaviy, ijtimoiy va bilim orttirish jarayonlarini ta'lim va tarbiya berish muassasalaridagi sharoitlarni o'zgarishini hisobga olib modellashtirish;

- amaliyot davrida, bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda tadqiqot xarakteridagi vazifalarni bajarish;

- pedagogik nazariya va amaliyotning dolzarb muammolari bo'yicha ilmiy ma'ruza, axborot va referatlarni ishlab chiqish, ular bilan oliy ta'lim muassasalararo va chetdagi ilmiy-tadqiqot to'garak, ilmiy seminar va anjumanlarda chiqish;

- talaba mutaxassisligi sohasida kasbiy faoliyatining har xil aspekt (jihat)lari bo'yicha ilmiy maqolalar tayyorlash;

-oliy ta'lim muassasalariaro, ham respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlarda talabaning eng yaxshi ishi bo'yicha qatnashish.

Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishi o'quv jarayonining muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ilmiy laboratoriya va to'garaklar, talabalarining ilmiy jamiyati va anjumanlari – bularning hammasi talabaga to'laqonli ilmiy ishni boshlash, u bo'yicha o'zining tadqiqot natijalari bilan maslahatlashadigan va bo'lishadigan hamfikrlilarni topish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalarining barcha talabalari u yoki bu yo'l bilan ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanishadi. Referat, kurs va bitiruv malakaviy ishlarini yozish qandaydir eng oddiy tadqiqotni o'tkazmasdan mumkin mumkin emas. Ammo talabaning shug'ullanishini o'quv reja majburlamaydigan chuqurroq ilmiy ish, ularning oz qismini jalb qiladi. O'qituvchilar tomonidan marhamatli e'tibor va qo'llash zarur bo'ladi, u siz talaba, ayniqsa kichik kurslarda "zerikarli ilm" bilan shug'ullanishni xohlamaydi (umuman qila olmaydi), deyarli hamma fan unga o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida shunday tuyuladi. Ko'pincha o'qituvchining mehnatini bog'bon mehnati bilan taqqoslashadi. Shunday, agar oddiy talabani tayyorlash ishlab chiqilgan texnologiya va o'qit mavjud bo'lgan joyda kartoshkani yetishtirish bilan taqqoslash mumkin bo'lsa, oliy ta'lim muassasalari laboratoriya va to'garaklarida bo'lajak ilmiy xodimlarni tayyorlash esa bizlarning dalalarda kam uchraydigan ananasni yetishtirish bilan taqqoslash mumkin. bitta noto'g'ri qadam, bitta noto'g'ri maslahat – va hamma uzoq vaqt safrlangan mehnat foydasiz bo'lishi mumkin hamda kam uchraydigan o'simlik meva bermasdan o'ladi.

Ilmiy ish bilan shug'ullanadigan talaba, faqat o'zi uchun javob beradi; tadqiqot mavzusi, ishni bajarish muddati faqat uning o'ziga bog'liq hamda umuman bajariladimi, yo'qmi, bu kam ahamiyatli emas. O'zining shaxsiy vaqtini sarflab, talaba bo'lajak mustaqil izlanuvchi uchun ijodiy ong, o'zining nuqtai nazarini himoya qilish mas'ulligi va mahorati kabi muhim sifatlarini rivojlantiradi.

Talabalarining ilmiy birlashmalari ko'pincha oliy ta'lim muassasalari uchun yosh kadrlarni, ularning ichida va ulardan tashqarida

ishlaydigan o'chog'i bo'lib qoladi. O'tgan ajdodlarimizning ishlarida ham biz auditoriyadan tashqari soatlarda o'zining shaxsiy tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan yosh talabalarni mukofotlash zarurligi to'g'risidagi so'zlarni uchratamiz. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishining ikki qo'llaniladigan turi mavjud:

1. Talabalarining amaldagi o'quv rejalarida ko'zda tutilgan *o'quv ilmiy-tadqiqot ishi*. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishining bu turlariga oliy ta'lim muassasada o'qish davomida bajariladigan kurs ishlari ham to'rtinchi kursda bajariladigan bitiruv malakaviy ishi kiradi.

Kurs ishini bajarishda talaba mustaqil ilmiy ijodga birinchi qadamini qo'yadi. U ilmiy adabiyotlar bilan (agar zarur bo'lsa, chet ellarniki bo'lsa ham) ishlashni o'rganadi, zaruriy axborotlarni tanqidiy tanlash va tahlil qilish ko'nikmasini egallaydi. Agar birinchi kursda kurs ishiga talabalar minimal bo'lsa va uni yozish talaba uchun katta mehnat talab etmasa, keyingi yilda esa talabalar yetarlicha oshadi va ishni yozish haqiqatda ijobiy bosqichga aylanadi. Shunday ekan, kurs ishiga talabalar yilda-yilga oshib borib, oliy ta'lim muassasasi talabaning mustaqil izlanuvchi (tadqiqotchi) sifatida rivojlanishiga imkon beradi, buni uning o'zi uchun deyarli sezdirmasdan va majburlamasdan amalga oshirib boriladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish talabaning ijodiy va bilish qobiliyatini keyingi rivojlantirishini o'zining maqsadi qiladi va talaba o'qishining oliy ta'lim muassasada yakuniy bosqichi sifatida nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish va tanlangan mavzuni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Katta kurslarda talaygina talabalar mutaxassislik bo'yicha ishlashadi hamda kurs ishi mavzusini tanlashda bu e'tiborga olinadi. Mazkur holatda, adabiyotlarni tahlilidan tashqari, bitiruv malakaviy ishida berilgan savol bo'yicha o'zining shaxsiy malakasi ham kiritilishi mumkin, bu faqat ishning ilmiy bahosini oshiradi.

Amaldagi o'quv rejada ko'zda tutilgan talabalar ilmiy tadqiqot ishining amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha referatlarni yozishni ham kiritish mumkin. bunda bu ko'pincha yo maqolalarni qayta zish yoki biron darslik bobining matni bo'lishini aytish lozim. Buni katta

shubha bilan ilmiy ish deyish mumkin. ammo bir nechta maqola va manbalar asosida yozilgan ba'zi bir referatlarni, chindan ham ilmiy ish deyish mumkin va ularni talabalar ilmiy tadqiqot ishi turlari ro'yxatiga kiritish to'la o'rindidir.

2. O'quv rejada ko'rsatilgan talablardan tashqari talabalarining mustaqil *ilmiy tadqiqot ishlari*.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, talabalar ilmiy-tadqiqot ishining bunday shakli talabalarda tadqiqot va ilmiy qobiliyatni rivojlantirish uchun eng samarali hisoblanadi. Buni tushuntirish oson: agar talaba bo'sh vaqti evaziga biror-bir fanning savollari bilan shug'ullanishga tayyor bo'lsa, unda o'qituvchining asosiy muammolaridan biri olib tashlanadi, aynan – talabaning mashg'ulotdagi motivatsiyasi (vaji). Talaba shunchalik yetilganki, u bilan o'quvchi sifatida emas, kichik hamkasb sifatida ishlash mumkin. Ya'ni talaba axborot bilan to'ldiriladigan idishdan, undan oxirgi axborot oladigan manbaga aylanadi. U adabiyot yangiliklarini kuzatadi, tanlagan fanda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni bilib borishga harakat qiladi, asosiysi – fanni anglash bosqichi oliy ta'lim muassasadan tashqarida va amaliy mashg'ulot hamda yakuniy nazorat (YAN)larga tayyorgarlik to'xtamaydi. Hatto dam olish vaqtida ham talaba ongida o'z-o'zini mukammallashtirish bosqichi to'xtamaydi.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishining o'qishdan tashqari vaqtda bajariladigan asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

- fan to'garaklari;
- muammoli to'garaklar;
- muammoli talabalar laboratoriyalari;
- ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda qatnashish;
- oliy ta'lim muassasadagi va respublikadagi ko'rik-tanlovlarda qatnashish;
- kafedralarining davlat byudjeti, grant va xo'jalik shartnomalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari mavzularini bajarishda qatnashish.

Yuqorida sanab o'tilgan shakllarning har biriga izoh berishga to'xtalib o'tamiz.

Fan to'garaklari. Talabalar ilmiy tadqiqot ishining mazkur shaklidan ko'proq kichik kurslar talabalari bilan ishlashda foydalaniladi. Bunga umumilmiy va umumnazariy kafedralar rahbar bo'lishadi. Ilmiy to'garaklar talabalar ilmiy tadqiqot ishida eng birinchi qadam hisoblanadi va qatnashchilar oldida uncha qiyin bo'lmagan maqsad qo'yiladi. Ko'pincha bu ma'ruza va referatlarni tayyorlash, ular keyin to'garak va ilmiy anjuman majlislarida eshitiladi. To'garak guruh, kurs, fakultet a'zolarini birlashtiradi, ba'zida esa butun – oliy ta'lim muassasaning. Oxirgi variant ko'proq ijtimoiy va gumanitar fanlarning muammolarini o'rganadigan to'garaklarda uchraydi, chunki texnik va tabiiy fan to'garaklarida yuqori kurs talabasining ilmiy tadqiqoti birinchi kurs talabalariga aniqrog'i tushunarsiz bo'ladi va ularda bunday to'garaklarga qiziqish yo'qoladi.

To'garaklarning ishi, qoidaga ko'ra, quyidagi ko'rinishga ega:

Taxminan oktyabr oyida o'tadigan tashkiliy yig'ilishda tanlov yo'li bilan ma'ruza va referatlar mavzulari tarqatiladi, undan keyin o'qituvchi har bir mavzu uchun mavjud asosiy va qo'imcha adabiyotlarni ko'rsatadi va tez kunda ish rejasini tuzishni tavsiya etadi. Ba'zi bir o'qituvchilar ma'ruzalarni tanlov asosida tarqatish zarur deb hisoblashmaydi, chunki talaba boshqa mavzularga e'tibor bermay, bitta mavzuga o'z fikrini jamlaydi.

Bir tomondan, mavzularni majburiy tarqatish bunday "sikllanganlik" ("davriylik")ni tugatish mumkin, ammo boshqa tomondan, bunday yo'l talabalar tomonidan ma'qullanmasligi mumkin. birinchi marta to'garak majlisiga kelgan birinchi kurs talabasini tasavvur qilamiz, u yerda unga hamma qatori kabi munosabatda bo'lishadi deb o'ylaydi va u birdan ish uchun uni kam qiziqtiradigan mavzuni oladi, o'zining ishida rivojlantirishni xohalagan mavzuni esa boshqaga beriladi. Albatta, talaba xafa bo'ladi va uning to'garakning boshqa majlislarida qatnashishi gumon ostida qoladi.

Shunday qilib mavzularni tarqatish faqat tanlov asosida bo'lishi kerak, bundan tashqari oliy ta'lim muassasada o'qish boshlanishida yoshlar o'zining qiziqishi va ishtiyoqiga ega bo'lish uchun endi yetarli darajada rivojlangan.

Mavzularni tarqatgandan keyin to'garaklarning bosh va asosiy ishi boshlanadi. Boshlanishida asosiy o'rin uning rahbariga taalluqli bo'ladi. Aynan uning tajribasi, qobiliyati va sabr-toqatiga bog'liq, yosh tadqiqotchilarning boshlang'ich tashabbusi o'ylab qilinadigan ish o'rnini oladimi yoki hammasi kurtak xolidagi bosqichda qoladimi? Har bir talabani kuzatish lozim, unda ish davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan aytishga harakat qilish lozim. Shunday holat sodir bo'lishi mumkinki, yosh yigit savol berishga uyalishi mumkin, uni mustaqil yechish uchun o'zini yetarli darajada ulg'aygan hisoblab, keyin esa javob topa olmay, umuman tadqiqotdan o'zining ilmiy qurbi yetmasligi to'g'risida qaror qabul qilib, voz kechishi mumkin.

Bunday psixologik muammolar ko'pincha kichik kurs talabalari oldida turadi. Shakllangan stereotip (shablon) uning sababi hisoblanadi, talaba bu – endi to'la shakllangan odam va uning o'zi muammolarini yechishi lozim deb o'ylaydi. Aslida esa, kichik kurslar talabalarining fikrlashi hali maktab va ochiqroq aytganda, oddiy bolalikning katta ta'siri (alomati)ni o'zida olib yuradi. Shuning uchun o'zini tutishning "voyaga yetgan" modeli bilan va bolalik fikrlash orasidagi nizo eng qobiliyatli, ammo ziyrakligi yetarlicha bo'lmagan pedagogning urinishini yo'qqa chiqirishi mumkin. shuning uchun talabalarga ilmiy tadqiqotning uslubi va usullari, material yig'ish, adabiyotlar ustida ishlash, ilmiy apparatdan foydalanish to'g'risida ikki-uch marta ma'ruza o'qish hamda kafedra professor-o'qituvchilarining ilmiy yo'nalishlari bilan tanishtirish ortiqcha hisoblanmaydi, zarurat tug'ilganda, talabalar ba'zi savollar bo'yicha kengroq maslahat uchun kimlarga murojaat qilish mumkinligini bilishlari uchun.

Agar to'garakning boshlang'ich davrida ish muvaffaqiyatli bo'lsa va mavzuning katta qismi ishga qabul qilinsa, unda chiqish (ma'ruza qilish) grafigi tuziladi va tayyor ma'ruzalarni eshitish boshlanadi. Qoidaga ko'ra, to'garakning bitta majlisida ikkitadan ortiq ma'ruza eshitilmaydi, chunki faqat shundagina har bir dokladni keng muhokama qilish, savollar berish va ularga kengaytirilgan javoblarni olish mumkin. bundan tashqari, ko'p sonli ma'ruzalar qabul qilish uchun qiyin hamda to'garak a'zolarining faolligi va qiziqishini kamaytirishi mumkin.

To'garak ishining xulosa chiqarish shakli bo'lib ma'ruzalar ko'rik tanlovi, ilmiy anjumanlar va fan olimpiadalarida qatnashish, stol atrofida uchrashuv o'tkazish, olimlar bilan uchrashuv hamda yaxshi ishlar tezislari oliy ta'lim muassasa ilmiy to'plamlarida chop etishlar xizmat qilishi mumkin.

Muammoli to'garaklar. Ilmiy to'garaklar to'g'risida barcha ta'kidlab o'tilganlarni muammoli to'garaklarga kiritish mumkin, ammo ba'zi bir farqlarni hisobga olish lozim:

- Muammoli to'garaklar o'ziga har xil kurs va fakultetlar talabalarini birlashtirishi mumkin hamda agar oliy ta'lim muassasa qoshida akademik lisey, kollejlari bo'lsa, ularning talabalarini ham. To'garak faoliyati markaziga uning ilmiy rahbari shug'ullanadigan yoki uning tanlovi bo'yicha har qanday boshqa muammo qo'yilishi mumkin. talabalar ilmiy tadqiqot ishi mazkur shaklining katta yutug'i – bu tanlangan mavzularni chuqurroq va turli tasvirlar bilan ko'rib chiqish imkoniyati mavjudligi.

- Muammoli to'garaklar talabalar ilmiy tadqiqot ishining "yengillashtirilgan" shaklidir va shuning uchun, uning bazasida to'garaklarda tanlangan muammolar bilan shug'ullanadigan olimlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish mumkin, bu muammolarni ko'rib chiqish uchun ish va maishiy xizmatda, har xil viktorina va quvnoqlar va zakkolar (QVZ (KVN))larni o'tkazishda to'qnashadigan.

- Muammoli to'garak ilmiy to'garak, laboratoriya va hokazolarning elementlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Muammoli talabalar laboratoriyalari (MTL). Muammoli talabalar laboratoriyalari talabalar ilmiy tadqiqot ishining keyingi murakkab bosqichiga kiradi. Ularda ikkinchi va yuqori kurs talabalari qatnashadilar. Laboratoriya ilmiy ish maktabi hisoblanmaydi, unda shug'ullanish bilim va ko'nikmalarning ma'lum zahirasiga ega bo'lishni talab etadi. Muammoli talabalar laboratoriyalari doirasida modellashirishning har xil turlari, haqiqiy (real) hujjat, dastur, amaliy o'yinlar hamda tashkilotlarga amaliy yordam amalga oshiriladi. Bunday laboratoriyada ishlash nafaqat adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishni, balki tajriba qo'yishni, nimadir yangi narsani yaratishni ko'zda tutadi.

Muammoli talabalar laboratoriyalari ilmiy va muammoli to'garaklar kabi ko'p sonli bo'lmaydi. Talabalarni bilimini sinab ko'rish (elakdan o'tkazish) amalga oshiriladi, unda qobiliyatli talabalardan yanada iqtidorlilari tanlab olinadi.

Muammoli talabalar laboratoriyalarining to'garaklardan yana bir farqi talabaning jamoaviy ishga qobiliyati katta ahamiyatga egaligidadir. Agar to'garakda har bir talaba, qoidaga ko'ra, faqat o'zi uchun javob bersa, tadqiqot mavzulari ancha globalroq bo'lgan muammoli talabalar laboratoriyalarida esa, faqat mustaqil ish bilan eplamoq amalda mumkin emas. Laboratoriya rahbari talabalarga mavzuni alohida savollarga bo'lishga yordam berishi kerak, ularning yechimi bosh muammoni yechishga olib keladi. Har bir talabaning qiziqishi, ishtiyoqi va imkoniyatlariga e'tibor muhim. Jamoaviy ish tajribasi birdan kelmaydi, ish davrida sodir bo'ladigan tortishuv, nizolarni ko'pini yechish ham o'qituvchilar zimmasida bo'ladi.

Muammoli talabalar laboratoriyalaridagi ishlar "yosh bolani emas, arbobni" tarbiyalaydi. Bu ish bosqichida to'garaklarda o'qish va ishlash davrida olingan bilimlarni talaba amaliy ahamiyati bo'lgan tadqiqotlarda qo'llashi mumkin. kafedralar qoshidagi talabalar laboratoriyalari ilmiy ishlarga jalb qilinishi lozim, ulardan nafaqat axloqiy, balki moddiy rag'batlantirish olinadi. Bundan tashqari, qiziqqan tashkilotlar talabalarni keyinchalik ishga taklif qilishlari mumkin, bu esa davlat yo'llanmasi mavjud bo'lmagan vaqtda qimmat natija hisoblanadi.

Shunday qilib, muammoli talabalar muammolaridagi ish – to'la qimmatli ilmiy-tadqiqot ishga qo'yiladigan keyingi qadam va keyingi ilmiy hamda amaliy faoliyat uchun ahamiyatli tajriba.

Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda qatnashish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bahs turlari qilingan ishning yakuni hisoblanadi: ilmiy tadqiqot, laboratoriyadagi ishlar, malakaviy amaliyot.

Anjumanda yosh tadqiqotchilar o'z ishlari bilan keng auditoriya oldida chiqish imkoniga ega bo'ladilar. Bu talabani qiladigan ma'ruzalarini sinchiklab ishlab chiqishga majbur qiladi, uni nutq qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, har bir kishi taqqoslashi mumkin, uning ishi umumiy saviyada qanaqa ko'rinadi, tegishli

xulosalar qiladi. Bu ilmiy anjumanning juda foydali natijasi hisoblanadi, chunki ko'p talabalar boshlanishida o'zining fikrini xatosiz deb hisoblashadi, o'zining ishini esa – ilmiy sohada eng chuqur va ahamiyatli deb bilishadi. Ko'pincha hatto o'qituvchining nasihati ham oddiy injiqlik qilish kabi qabul qilinadi. Ammo, boshqa talabalarining ma'ruzasini eshitib, o'zining ishini kamchiliklarini anglamasligi mumkin emas; agar o'xshash ish bo'lsa o'zi uchun o'zining kuchli tomonlarini ajratishi mumkin.

Bundan tashqari, agar anjuman doirasida eshitilgan ma'ruzalarning ijodiy muhokamasi o'tkazilsa, unda ma'ruza va chiqishlardan har bir ma'ruzachi o'zi uchun asl g'oyalarni olishi mumkin, tanlagan mavzusi doirasida ularni rivojlantirish to'g'risida u hatto o'ylab ko'rgan emas edi. Bitta fikr bir nechta yangisini yaratganda, o'ziga xos mexanizm ishga tushadi.

Ilmiy-amaliy anjumanlarga nomidan kelib chiqqan holda nafaqat nazariy ilmiy ma'ruzalar, balki asosan amaliy masalalarni yechish yo'llari muhokamasiga doir ma'ruzalar ham kiritiladi. Juda ko'p hollarda anjumanlar oliy ta'lim muassasa hududidan tashqarida, oliy ta'lim muassasa bilan aloqada bo'lgan tashkilot, korxona, muassasa, fermer xo'jaligi, boshqaruv organ hududlarida o'tkaziladi. Masalan, ilmiy-amaliy anjuman talabalarining yozgi amaliyot natijalari bo'yicha o'tkazilishi mumkin, talabalar ma'lum muammolar bilan to'qnashib, tashkilot xodimlari va o'qituvchilar yordamida ularni yechish yo'lini topishga harakat qilishlari mumkin. bunday anjumanlar oliy ta'lim muassasa va tashkilotlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga imkon yaratadi hamda talabalarga olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llashni o'rganishga yordam beradi. Ilmiy-amaliy anjumanning farqlanadigan tomoni uning tashkiliy ishini, unda qatnashish ham oliy ta'lim muassasa talabalari, ham professor-o'qituvchilari uchun bir xil foydali va qiziqarli bo'ladigan qilib, tartibli o'tkazish murakkabligidir. Bunday anjumanni ishlab chiqish va o'tkazish uning tashkilotchi va qatnashuvchilaridan katta e'tibor va sabr talab etiladi.

2.2.2-§. Internet-manba yordamida talabalarning mustaqil ishi

Internetga kirishga imkon yaratadigan shaxsiy kompyuterlar va axborot markazlarining soni kun sayin oshib bormoqda, shuning uchun oliy ta'lim muassasadan tashqarida talabalarning ta'lim faoliyatini nazorat qilish, ayniqsa, internet-manbalar to'g'risida gap borganda murakkablashmoqda. Shuning uchun professor-o'qituvchilar tarbiyalovchilarning mustaqil ishini kerakli tomonga yo'naltirishga harakat qilishlari lozim. Buni amalga oshirishga, oldindan professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rilgan va tavsiya etiladigan, tarmoq manbalarining ro'yxatini o'z ichiga oladigan maxsus shaklda tuzilgan masalalar yordam beradi.

Elektron manba (resurs)lar bilan talabalar mustaqil ishini tashkil etish texnologiyasi:

- talabalar ishini elektron katalogga kiritilgan o'quv-uslubiy materiallar bilan tashkil etish;
- erkin kompyuter fondini tahlil qilish va kompyuter xona (sinf)larida talabalar mustaqil ishini ta'minlash resursining reja-grafigini tuzish;
- kompyuter xona (sinf)larining erkin manba (resurs)lari to'g'risidagi axborotlarni talabalarga yetkazish;
- talabalarni ular uchun qulay bo'lgan vaqtlarda katalogga kiritilgan kompyuter resurslari bilan ishlash uchun oldindan yozib borish;
- talabalarni kompyuter xona (sinf)lariga kirishini ta'minlash va ularning ishini nazorat qilish;
- o'qituvchining topshirig'ini bajarish bo'yicha guruh mashg'ulotlarini tashkil etish, kompyuter sinflariga kirishni nazorat qilish.

O'rgatadigan dasturlar yordamida mustaqil kompyuter mashg'ulotlari uchun auditoriyalarda talabalar ham o'zlarining ma'ruza va seminarlarda olingan mashg'ulotlarini to'ldirishi, ham o'zlarining saviyalarini tekshirishlari, joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON) va yakuniy nazorat (YAN)larga tayyorgarlik ko'rishi va topshirishlari mumkin.

Internetda talabalarning mustaqil ishining turlari. Talabalar mustaqil ishi tizimini mumkin bo'lgan telekommunikasiya tarmoqlaridan foydalanib ko'rib chiqish mumkin. har bir tizimni uning maqsadi, tarkibi va shaklini aniqlab, tavsiflash mumkin. ishlab chiqiladigan mustaqil ish tizimining maqsadi talabalarning bilish mustaqilligini rivojlantirishdan iborat; *uning tarkibi* – fan bo'yicha o'quv dasturini o'zlashtirish. Bunda quyidagi yangi axborot texnologiyalari qo'llaniladi:

- *tarmoqda axborotlarni qidirish uchun* – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv va axborot-ma'lumot tizimlari, avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi, elektron jurnallaridan foydalanish;
- *tarmoqda muloqot (dialog)ni tashkil etish uchun* – elektron pochta, sinxron va teleanjumarlardan foydalanish;
- *tematik web-sahifa va web-kvestlarni tuzish* - html (html)-muharrir, ftr, web-brauzer, grafikli muharrirlardan foydalanish.

Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning berilgan turlari va oliy ta'lim muassasasida o'qish shakllarini o'quv jarayonini tashkil etishni axborot o'qitiladigan muhitda mustaqil ishning turlariga mos keluvchi har bir shakli bo'yicha o'zaro nisbatni keltirib o'tish mumkin (5-jadval).

Web-kvest deb, tadqiqot faoliyati turining maxsus ko'rinishda tashkillashtirilganiga aytiladi, uni bajarish uchun talabalar tarmoqda ko'rsatilgan manzil bo'yicha axborot qidirishni amalga oshirishadi. U olingan axbrotlarni amaliy maqsadlarda foydalanish va tanqidiy fikrlash mahoratini rivojlantirish, tahlil, sintez va axborotlarni baholashda, talabalar vaqtdan yaxshi foydalanishi uchun yaratiladi. Faoliyatning mazkur turi 1995 yil San-Diyego davlat universitetining Berni Dodj va Tom March tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur ish maksimal samarali bo'lishi uchun *web-kvest* quyidagi qism (maxsus ko'rinishda tashkil etilgan web-sahifa)lardan tashkil topgan bo'lishi lozim:

1. Kirish, unda o'tkazish muddati yoziladi va boshlang'ich holat (situasiya) beriladi;

2. Real bajarilishi mumkin bo'lgan qiziqarli topshiriq;
3. Topshiriqni bajarish uchun tarmoq resurslariga zaruriy dalillar to'plami;
4. Talabalarga materiallarni ko'chirishni yengillashtirish uchun, ba'zi bir (ammo hammasi emas) resurslar mazkur *web-kvest* saytiga nusxa qilib ko'chirilishi mumkin. Ko'rsatilgan resurslar web-sahifa, ekspertlarning elektron manzillari yoki tematik chatlari kutubxona yoki o'qituvchida mavjud kitob yoki boshqa materiallarga dalillardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Topshiriqlarni bajarishda aniq manzillar ko'rsatilgani evaziga talabalar vaqtlarini yo'qotmaydilar;
5. Ishni bajarish jarayonini yozish. U aniq muddati ko'rsatilib, bosqichlarga bo'linishi kerak;
6. Olingan axborotlarni qay ta ishlash bo'yicha ba'zi bir tushuntirishlar: yo'naltiruvchi savol, oddiy tushuncha, sababli-tergov diagrammalari;
7. Talabalarga eslatadigan xulosa, ular berilgan topshiriqni bajarib, nimani o'rganishdi; balki imkoni bo'lsa, mavzu bo'yicha keyingi mustaqil ish uchun yo'l yoki qanday qilib olingan tajribani boshqa sohaga ko'chirishni yozish.

Web-kvestlar qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. qisqa muddatli mahsulotlarning maqsadi bilimni egallash va uni o'zining bilim tizimiga integrasiya qilishni amalga oshirishdan iboratdir. Qisqa muddatli *web-kvestlar* ustida ishlash birdan uch seansgacha cho'zilishi mumkin. uzoq muddatli *web-kvestlar* tushunchalarni kengaytirish va oydinlashtirishga yo'naltirilgan. Ular ustida ish tugashi bilan, talaba olingan bilimlarini chuqur tahlil qilish, ularni transshakllantirishni bilishi lozim, materialni shunchalik egallashi kerakki, mavzu bo'yicha ishlash uchun topshiriq tuza bilsin. Uzoq muddatli *web-kvestlar* ustida ishlash bir haftadan bir oygacha (maksimum 2 oygacha) cho'zilishi mumkin.

2.2.3-§. Kurs ishi – talaba mustaqil ishini yo'nalishlaridan biridir

Kurs ishi (loyihasi)ni yozishda o'qituvchining yordami va rahbarligi katta ahamiyatga ega. Fanlarni o'rganishni boshlanishida talabalarga kurs ishi (loyihasi)ning mavzulari xabar qilinadi va talablar,

adabiyot manbalari ustida mustaqil ishlash metodikasi hamda mavjud (aniq) materiallarni tanlash bilan tanishtiriladi.

Talabalar tomonidan kurs ishi (loyihasi)ni bajarish o'quv fanlarini o'rganishning yakuniy bosqichida amalga oshiriladi, uni bajarishda olingan bilimlarni qo'llash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati sohasi bilan bog'liq masalalar majmuasini yechish mahorati o'rganiladi. Talabalar tomonidan kurs ishi (loyihasi)ni bajarish quyidagi maqsad bilan o'tkaziladi:

- umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmani tartibga solish va mustahkamlash;
- berilgan mavzuga muvofiq nazariy bilimlarni chuqurlashtirish;
- qo'yilgan savollarni yechishda nazariy bilimlarni qo'llash mahoratini shakllantirish;
- ma'lumot, me'yoriy va huquqiy hujjat hamda adabiyotlardan foydalanish mahoratini shakllantirish;
- ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyatlilik va tashkilotchilikni rivojlantirish;
- yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik.

Kurs ishi (loyihasi)ning vazifasi, talaba qanchalik mustaqil ilmiy faoliyat mahoratini egallaganligini aniqlashdan iboratdir. Kurs ishi (loyihasi)ning mavzusi talaba tomonidan uni maqsadga muvofiq ekanligini asoslash sharti bilan taklif qilinishi mumkin. Chunki kurs ishi (loyihasi)ni endi mustaqil ilmiy tadqiqot, uning mavzusi fan va ishlab chiqarishning zamonaviy holati nuqtai nazaridan dolzarb bo'lishi lozim.

Referat ma'ruza (doklad), kurs ishi (loyihasi) va bitiruv malakaviy ish (BMI)lar talaba oliy ta'lim muassasada o'qish davrida amalga oshiradigan asosiy ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi. Talaba mustaqil ishning bu shakllarini bajarishda adabiyotlarni qidirish mahorati, ularni matnlashtirish (matnini tuzish), tanlangan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, reja tuzish, ilmiy tadqiqotni tuzilishini ta'minlash (strukturalash), ishni rasmiylashtirishni ko'rsatadi. Matn, referat, ma'ruza (doklad), kurs ishi (loyihasi) va bitiruv malakaviy ish (BMI)larni bajarishga qo'yiladigan umumiy talablarni ko'rib chiqamiz.

Matnlashtirish – auditoriyadan tashqari talabalr mustaqil ishining asosiy shakllaridan biri. Matn (lotincha obzor – umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot)- biro narsa (ma'ruza, maqola, kitoblar)ni o'z ichiga asosiy qoidalar va ularni dalil va misollar yordamida asoslashni kiritadigan mazmunini qisqacha yozma ifoda etish. Matnlar og'zaki nutq va yozam matnlar bilan farqlanadi.

1. Yozma matn yoki matnlashtirish – talabalarning o'quv faoliyat mahsuli. Matnlashtirish jarayonida logik fikrlash rivojlanadi, nuq madaniyati mukammallashadi, ko'rish xotirasi mashq iladi. Matn anolog (o'xshashlik), taqqoslash va boshqalari bilan reja, tezis, qo'shimcha aniq material (raqam, sxema, jadval, misol)lardan tashkil topgan.

Matnlashtirishning turli xil usullari mavjud:

-so'z, so'z birikma, atamalarini qisqartirish (*a/giperrabbreviatura*, atamaning bosh harfi chizib qo'yilganda, aylana, oval ichiga olingan; *b/* kvantorizasiya, ko'p qo'llaniladigan so'zning bosh harfi aylantirilganda; *v/* iyeroglifika; *g/* piktografika (rasmlar bilan ishlash); *d/* so'z oxiri yozilishining har xil usullari);

- frazalarni qog'oz bo'yi va enidan foydalanib fazoviy yozish usuli bilan qayta ishlash; rangdan (rubrikasiya, mavjud detal (qism)larni rang bilan ajratish) foydalanish.

2. Og'zaki nutqning matni – ma'ruza (doklad)larni faqat shartli ravishda matnlashtirish deyish mumkin. og'zaki ma'ruzalar matni yozma ma'ruzalar matnidan shu bilan farq qiladiki, bunda ma'ruzalarni matnlashtirib yoza borib, talabalar ma'ruzachining axborot materiallari bilan cheklanib qoladi, oldin aytganlariga qayta olmaydi, dalil va shunga o'xshashlarni taqqoslay olmaydi. Bunday matnlarning asosiy bahosi, ularning muallflik fikri, mulohazalaridan tashkil topgan, chunki doim ham ma'ruzalarda ijod kelavermaydi. Ko'pgina olimlar, masalan, Albert Eynshteyn , o'zining yangiliklarini aynan ma'ruzalarda ochgan, nemis faylasufi Gegelning ilmiy ishlarini esa uning universitetdagi stenografik yozuvlari tashkil etgan. Aynan ma'ruzalar vaqtida "o'ziga qaytarish akti", auditoriyaning shaxsiy bilimini uzatish sodir bo'ladi. Shuning ma'ruza matnini saqlash va aniq bayon etish muhimdir. Ammo ma'ruzalar matni– bu ma'ruzachi nutqining faqat shunchaki stenografik

yozuvi emas, balki ko'proq fikr, mulohazalarini keyinchalik rivojlantirishi lozim bo'lgan skeleti, karkasidir. Ma'ruzalar matnini yana yozuvlarning mazmunini ko'rib chiqib qayta ishlash lozim bo'ladi, tahrirdan o'tkaziladi, qatorlarda belgilar qo'yiladi: ?-“tushunarsiz”; !-“yaxshi fikr”; J.M.-“juda muhim”.

Referat – aniq mavzu bo'yicha ilmiy axborotlarni qisqa, yozma bayon etish.

Referat mavzusi tavsiya qilingan ro'yxatdan yoki talabaning taklifiga muvofiq referat yoziladigan fanning o'qituvchisi bilan kelishilgan holda tanlanadi.

Referat monografik bo'ladi – bitta manba bo'yicha, masalan, monografiya, maqola, o'quv qo'llanmalar bo'yicha referat yozish yoki umumlashtiruvchi (obzorli)- bir nechta manbalar bo'yicha, tanlangan mavzuning tahlili ko'zda tutiladi.

Referat asosiy qismining tuzilishi (strukturasi) quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

- referat qilinadigan material muallifi to'g'risida ma'lumot, agar mavzuni to'la yoritish uchun zarur bo'lsa;

- referatning asosiy qismida mavzu bo'yicha ilmiy axborotni bayon etish;

- umumlashtirish, xulosalar, kamchiliklar, tanlangan mavzuning ahamiyati.

Referatlashtirish xususiy muammoga yoki aniqlangan mavzu bo'yicha har xil nuqtai nazarlarni umumlashtirishga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. ilmiy adabiyotlarni addiy matnlashtirishdan farqli o'laroq, bunda tahlil qilinadigan muammoga tur nuqtai nazarlar (taqqoslanadi, baholanadi) bayon qilinadi va bunda referatni tuzuvi turli mualliflarga tegishli, ko'riladigan ilmiy prziya, dunyoqarash yoki tushunchalarga o'zining munosabatini aniqlaydi. Referat yozish byo'icha faoliyatning tadqiqot tavsifi uni asosiy ilmiy bahosini taqdim etadi (ko'rsatadi).

Referat ilmiy maqola yoki monografiyaning asosiy mazmunini bayon qilishi mumkin. bunday referat dastlabki manbalarning asosiy

mazmunidan iborat bo'ladi va albatta tuzuvchining nuqtai nazarini ko'rsatadi Yu shu nuqtai nazardan muammoni ko'rib chiqadi.

Mustaqil ishning har qanday turi kabi referatlashtirishning bir nechta majburiy bosqichlari mavjud:

1. Talabalar tomonidan mavzuni tanlash mustaqil ravishda referatlar mavzulariga asosan amalga oshiriladi, u oliy ta'lim muassasada o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha har bir o'quv uslubiy majmua (O'UM)da keltiriladi;

2. Tanlangan mavzu mohiyatini ochadigan maqsad, vazifa va muammolarni aniqlash;

3. Adabiyotlarni tanlash va asosiy manbalarning, qoidaga ko'ra, 15-20 manbalardan tashkil topgan bibliografik ro'yxatini tuzish;

4. Ko'chirma, tanlangan o'quv qo'llanma va maqolalarning matnini yozish. Referat mavzusini ochishda tushuncha, klassifikasiyalar, har xil usullarning tahliliga alohida e'tibor berish lozim.

5. Referat asosiy qismining rejasini tuzish va referatning o'zini yozish, uni rasmiylashtirish. Referat kompyuterda yoki qo'lda yozilgan holda rasmiylashtirilishi mumkin. referatni himoya qilishdan oldin uning xomaki variantini o'qituvchiga ko'rsatish, undan keyin esa tugal rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir.

6. Talaba referat bilan seminar yoki laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda chiqishi mumkin.

Referat nimaga qodir ekanligingizni, sizning ijodiy potentsialingizni ko'rsatish imkonini beradi. U sizlarni ilmiy tadqiqot alifbosi bilan tanishtiradi. Eng muhimi va qiyini – referat mavzusini tanlash. O'rganiladigan muammoga chuqur kirib borish uchun, o'zining tadqiqot predmetini maksimal kichraytirish kerak. Doktorli dissertasiyasi mavzusini referat yozishga olmaslik lozim. Referat yozish uchun eslatma - jadvalda keltirilgan.

Ma'ruza (doklad) – mustaqil ilmiy-tadqiqot ishining shakli, bunda muallif tadqiqot qilinadigan muammoning mohiyatini ochadi, ularni o'rganishda har xil usullar hamda o'zining shaxsiy qarashlarini tahlil qiladi.

Referat tuzish uchun eslatma

<i>Referat ustida ishlash bosqichlari</i>	<i>Sharhlash</i>
Referat mavzusini muammo kabi ifodalang, muammo nimadan iborat ekanligini aniqlang, uni ovoz chiqarib aytib ko'ring.	Muammo (grekcha-masala) – o'rganish, yechishni talab etadigan murakkab nazariy yoki amaliy savol
Referat mavzusini ifodalang, rejasini tuzing	Muammoni belgilaydigan asosiy atamalarni ajrating, muammo nomini ta'riflaydigan oddiy gap tuzing, uning to'g'risida referatingizda so'z boradi. Reja-tartib, mazmuni ta'riflashning ketma-ketligi, g'oya, loyiha.
Muammoga muvofiq adabiyotlarni tanlang	Referat manbalar asosida quriladi: monografiya, maqolalar to'plami, jurnal maqolalari va boshqalar. Yangi va klassik manbalar, davriy nashrlardan foydalaning.
Ko'chirmalar qiling, tuzilgan rejaga muvofiq tezis tuzing	Tezis (grekcha-qoida, tasdiqlash)-biror-bir nazariyani tasdiqlash orqali ifodalash
Mavzu bo'yicha belgilangan savolga javob berishi uchun tezislarni tarkibini tahlil qilib yuring	Referat (grekcha-xabar qilish) berilgan muammo, savolni yechish uchun qiziqarli (lotincha qiziqish – muhim degan ma'noni anglatadi), ahamiyatli, muhim bo'lishi kerak
Ko'rayotgan referatingizda qaysi ilmiy yo'llarni ko'rayotganingizni aniqlang	Ilmiy usul (yo'l) – olimning berilgan mavzuga nuqtai nazari, qarashi. Agar bir nechta usulga dalil keltirilsa, yaxshi bo'ladi. Agarda birorta mualliflarni so'zmaso'z sitatta qilmoqchi bo'lsangiz, unga havola (snoska) qilishni unutmang.
Muammoni yechish bo'yicha o'z fikringizni ayting.	Fikr-mulohazalarga o'zining munosabatini bildirish.
Xulosalar qiling	Xulosa – natijalarni olish, aytilganlarni umumlashtirish, qo'yilgan savolga javob, muammoni yechish, xotimani keltirish

Ma'ruza (doklad)ni tayyorlash talabadan mustaqil va aqliy (intellektual, zakovat) ishni talab etadi, chunki u o'zida shunday majburiy elementlarni jalb qiladki, ular ham uni bajarish sifati, ham qilingan ish yutug'iga bog'liq bo'ladi:

1) tanlangan mavzu bo'yicha eng muhim ishlarni o'rganish, ularning ro'yxatini yo o'qituvchi beradi, yoki talaba o'zi taklif qiladi;

2) tanlangan materiallarni tahlili, eng ahamiyatli dalil (fakt)lar, har xil omillar va ilmiy qoida (nizom)lar usullarini ajratish;

3) ma'ruza (doklad)ni umumlashtirish va mantiqiy tuzilishi;

4) ilmiy uslub talablariga amal qilgan holda ma'ruza (doklad)ni yozish.

Ma'ruza (doklad)ning tuzilishi mustaqil ishning turi va saviyasiga bog'liq: u seminar mashg'ulotida ma'ruza qilish uchun o'quv mustaqil ishning shakli hamda to'garak, anjuman va shunga o'xshashlarda chiqish uchun.

Seminar mashg'ulotida ma'ruza qilish material (doklad)ni tayyorlash o'z ichiga fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmua tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxatini saralash, uni ko'rib chiqish va tanlashni oladi; ma'ruza matnini tuzish – saralangan material tahlil qilinadi, seminar mashg'ulotining rejasi, uning maqsadi va mantiqiga muvofiq tartibga keltiriladi. Olib borilgan tadqiqot natijalarini o'z ichiga olgan ma'ruza (doklad), qoidaga ko'ra, 10-15 daqiqadan oshmasligi kerak.

Qiziqarli dalil (fakt), miosl, holatlardan tashkil topgan, muammolik elementlari bilan qurilgan ma'ruza (doklad)lar ayniqsa qiziqarlidir.

O'quv ma'ruza (doklad)ning ilmiy-tadqiqot ma'ruzadan farq qiladigan o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda talaba, qoidaga ko'ra, mashg'ulot maqsadini aniqlashda, o'rganiladigan fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmuada keltirilgan tavsiyanomalar, uning rejasi, adabiyotlar ro'yxatini saralash usulidan foydalanadi.

Agar ma'ruza (doklad) talabaning ilmiy-tadqiqot ishi natijalari to'g'risidagi axborot kabi ijodiy jamoa tarkibida o'qituvchi rahbarligi ostida tayyorlansa, unda uning tuzilishi, tayyorlash bosqichi va rasmiylashtirilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:

1) ma'ruza (doklad) mavzusini tanlash yo o'qituvchi tomonidan, yoki olib boriladigan tadqiqot doirasida mustaqil tanlanadi va qoidaga ko'ra, mavzu dolzarb, asl va o'zining mazmuni bo'yicha qiziqarli bo'ladi;

2) tadqiqot dolzarbligi ma'ruza (doklad) nimasi bilan mazkur sohada qiziqarliligi, muhimligini ko'rsatadi;

3) ma'ruza (doklad) mavzusini asoslash mazkur sohadagi olimlarning ishlarini tahlilidan tashkil topadi, olib boriladigan tadqiqotlar doirasida eng kam e'tibor ajratilgan savollar aniqlanadi va mavzuni tanlashni tushuntiradi;

4) ma'ruza (doklad)ning maqsad va vazifalari umuman olganda tadqiqot mavzusini ifodalaydi va aniqlaydi, undagi ishning asosiy bosqichlarini ko'rsatadi;

5) ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha ma'ruza (doklad), qoidaga ko'ra, gipotezaga ega;

6) tadqiqotni o'tkazish metodikasini bayon qilish, ya'ni olingan natijalar bilan bog'liq mavzu ustidagi ishning hamma bosqichlarini keng yoritish;

7) natijalarni rasmiylashtirish, kuzatish va tajriba davrida olingan yangi axborotlarni qisqacha bayon qilishdan iboratdir. Olingan natijalarning ahamiyatliligi va ravshanligini ko'rsatish uchun umumlashtiruvchi jadvallar, diagrammalar keltiriladi, ma'ruza (doklad) bilan chiqishda ko'pincha kompyuterli taqdimotdan foydalaniladi.

Har qanday ma'ruza (doklad) yozma bayonnomadan so'ng og'zaki chiqish ko'rinishida xabar qilinadi, u bajarilgan ishning mazmunini yoritadi. Og'zaki ma'ruza (doklad) taqdimoti bilan birga olib borilishi mumkin.

Kurs ishi (loyihasi) - tajriba, nazariy yoki referativ tavsifdagi ilmiy-tadqiqot ishi.

Tajriba tavsifidagi kurs ishi berilgan mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi va olingan natijalarning muhokamasi bilan shaxsan o'zining tajribaviy tadqiqoti natijalarini o'z ichiga oladi.

Nazariy ish adabiyotlar sharhi hamda olingan natijalarning muhokamasi bilan asl nazariy tadqiqotdan tashkil topgan.

Referativ ish aniq ilmiy muammo bo'yicha adabiyotlarning to'liq va tartibga solingan tanqidiy sharhini o'z ichiga oladi.

Kurs ishining mavzusi, tartib-qoidaga ko'ra maxsus fanlarning dolzarb nazariy va amaliy muammolarini yoritadi, ular bajarilishi lozim

bo'lgan kafedrada tasdiqlanadi. Ishning o'zi bayon qilish chuqurligi, ilmiy usul va tizimli tahlilmamlakatimiz, chet el fanidagi mavjud nuqtai nazarni tavsiflaydi, maqsad, vazifa va gipotezalarni aniq ta'riflashni o'z ichiga oladi, tadqiqotning mavzusi va ob'yekti hamda empirik tadqiqot diagrammasini aniqlaydi.

Kurs ishi kafedra tomonidan tayinlanadigan ilmiy rahbar – professor-o'qituvchining rahbarligi ostida bajariladi. Talaba kurs ishini bajarishi natijasida tadqiqotchilik faoliyatini olib borishning asosiy ko'nikmalarini egallashga tayyorligini ko'rsatishi lozim.

2-kursdan boshlab fanlar bo'yicha talabalar tomonidan bajariladigan kurs ishining tizimi, talabalarni murakkab vazifalarni – bitiruv malakaviy ishini bajarishga tayyorlaydi.

Bitiruv malakaviy ish (BMI)- bu mustaqil tadqiqot, u muallifning tanlagan mavzusi bo'yicha chuqur bilimi, umuman uni mutaxassislik bo'yicha tayyorlanganligi, yig'ilgan materialni tahlil qilish mahoratini namoyon etishi, har xil kuzatuvlar haqida xabar qilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi talaba va ilmiy rahbar (maslahatchi) bilan birgalikda aniqlanadi va kafedrada kalendar (taqvim) reajasiga muvofiq tasdiqqa taqdim etiladi.

Bitiruv malakaviy ish talaba tomonidan ilmiy tadqiqot ishini bilish bilish qobiliyati va mahoratni o'zlashtirish darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi – respublikamiz va chet el tajribasi asosida tanlangan mavzu bo'yichato'plangan nazariy bilimni tahlil qilish va tartibga solish; o'z ishining natijalarini matnda bayon etishni bilish.

Bitiruv malakaviy ishda nazariy, uslubiy va tajribaviy qismlarni ajratish mumkin.

Oliy ta'lim muassasasining talabalari uchun *o'quv va malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyot* bilan bog'liq mustaqil ishga qatnashish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv rejada pedagogik-tanishuv (2 kurs), pedagogik (3 kurs) va bitiruv oldi (4 kurs) amaliyotlar rejalashtirilgan.

Yuqoridagi amaliyot turlarini o'tishda talabalarga individual vazifalar beriladi, masalan:

-ta'lim muassasa (kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar) tarixi, faoliyatini o'rganish;

-ta'lim muassasalarida o'quv-me'yoriy hujjatlar, ularning yuritilishi;

-o'quv-tarbiyaviy jarayonni tahlili, rahbar, rahbar o'rinbosarlari, pedagog va muhandis-pedagoglar, murabbiylar va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlari;

-o'tkaziladigan mashg'ulotlar, o'qituvchilar darslarini kuzatish va tahlil qilish;

-nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, o'tkazish, turli tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini ishlab chiqish va bevosita ishtirok etish;

-mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'yicha ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar, topshiriqlar, taqdimotlar va tarbiyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

-turli mavzulardagi o'quv-mavzuiy reja va ta'lim muassasasining tarbiyaviy ishlari rejalarining tahlili;

-o'quv-tarbiyay ishlarni mustaqil ravishda rejalashtirish va o'tkazish;

-amaliyot davrida kurs ish (loyiha)lari va bitiruv malakaviy ishda bajariladigan individual ilmiy vazifalar;

-talaba, jamoa va boshqalarning tavsifnomasini tuzish.

Fan bo'yicha Ryespublika olimpiadalariga qatnashish (1-2-bosqichlarda) eng iqtidorli talabalarni ilmiy-ijodiy mustaqil ishga jalb qilish imkonini beradi, chunki ularda qatnashish, bir tomondan yuqori nazariy tayyorgarlikni, ikkinchi tomondan esa turli auditoriya oldida ma'ruza (doklad) qilish, o'zining tashkilotchilik qobiliyati va boshqalarni talab etadi. Oliy ta'lim muassasasida har bir necha fanlardan olimpiada o'tkaziladi.

Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishi to'garak majlisi, ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza (doklad) qilish, kurs ishi va hokazolarni yozish bilan majburiy hisobot taqdim etish bilan tugashi lozim.

Ilmiy ishda eng faol qatnashadigan talabalar va professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning ilmiy mustaqil ishiga, to'garakka rahbarlikni amalga oshiradigan profesor-o'qituvchilar o'qishning har xil bosqichlarida bilimni baholashda (joriy, oraliq va yakuni nazoratlarni topshirishda) ular ishining natijalarini hisobga olishlari mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishda yuqori natijalarga erishgan hamda fakultet va oliy ta'lim muassasaning ijodiy faoliyatida faol ishtirok etadigan talabalar, ko'rik-tanlov asosida nomiga beriladigan, turli fond va tashkilotlar tomonidan ta'sis qilinadigan stipendiyalarni va mukofotning boshqa shakllarini qo'llash taklif qilinadi.

To'garaklar ishining natijalari bo'yicha anjumanlarda chiqish qilgan eng yaxshi talabalar ma'ruzasi (dokladi) ilmiy to'plamlarda chop etish uchun tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, eng yaxshi talabalar ishi, tanlov g'oliblarini faxriy yorliq, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash laureat unvonini berish uchun ko'rgazmalarga taqdim etiladi.

Ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo'yicha yuqori natijalar uchun eng yaxshi talabalar ma'naviy va moddiy (faxriy yorliq, diplom va qimmatbaho sovg'alar) rag'batlantiriladi.

O'qish davomida ilmiy ishlar bo'yicha hisobotlarga kiritilgan bir necha ilmiy ishlarni bajargan, nashrlarda maqola, tezislar chop ettirgan yoki tanlovlarda yuqori baho olgan oliy ta'lim muassasa bitiruvchilari katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutiga kirishga ilk navbatdagi imkoniyatini tashkil etadi.

2.2.4-§. Talabalarning mustaqil ishini modellashtirish

1. O'tilgan nazariy materialni qaytarish.
2. Mavzuning asosiy savollarini o'rnatish.
3. Mavzu bo'yicha bilimning chuqurligi va tarkibini aniqlash, mavzu bo'yicha tezislarni tuzish.
4. Mashq qilish, masalalarni yechish
5. Bajariladigan faoliyatning tahlili va uni o'ziga o'zi baho berishi.
6. Bilish qobiliyati va mahoratni egallash
7. Ma'ruza tarkibi bo'yicha savollarni tuzish.

Xotirani rivojlantirish yo'llari

Biz yashayotgan olamdan inson oladigan taassurot ma'lum iz qoldiradi, saqlanadi, aks etadi. Bu jarayonlar *xotira* deyiladi.

Birinchidan, talaba biladi: oldin eslab qolingan hammasi, xotiraning keyingi ishi uchun asos bo'ladi – odam qancha ko'p bilsa, keyingilarini eslab qolishi shuncha oson bo'ladi. Inson xotirasi hajmining chegarasi yo'q. Ikkinchidan, hatto xotira eng yaxshi bo'lganda ham unutish mumkinligini va qaytarish zarurligini eslash lozim.

Xotirani rivojlantirish uchun biror maqsadga qaratilgan yodlash, qaytarish bilan doimiy shug'ullanish lozim. Kimki, agar material o'qildi va tushunarli, demak, u o'zlashtirildi deb hisoblasa, xato qilgan bo'ladi. O'zlashtirish uchun o'qilgan narsani to'la qata aytish kerak. Qayta aytish rejasini tuzish, keyin uni matn bilan tekshirish foydali. Yozuvlar eslab qolishga juda yordam beradi, chunki ular xotiraning motrli komponentini faollashtiradi.

Materialni bevosita oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YAN)lardan oldin qaytargandan ko'ra, o'rganib bo'lgandan so'ng darrov qaytarish samarali hisoblanadi. Ko'p qismi esdan chiqqan, ancha oldin o'tilgan material, yana yodlashni talab etadi.

Xotirani qanday yaxshilash mumkin?

Nimani eslab qolishni xohlasangiz, o'sha narsaga fikrni jamlash lozim.

Nimani eslab qolish lozim bo'lsa, o'shani ovoz chiqarib o'qish (matndan ko'zni uzib) foydali.

O'qilganlarni har xil holatlarda qaytarish (transportda, dam olishda, ko'chada) kerak.

Chalg'imaslik, e'tiborni bo'lmaslik.

Eslab qolish motivini aniqlash.

2.2.5-§. Talabalar mustaqil ishining nazorat tizimi (monitoringi)

Mustaqil ish monitoringining psixologik-pedagogik mohiyati talaba-larning o'quv faoliyatini tashkil etish va tuzatish, sodir bo'ladigan qiyinchiliklarda yordam berishda ifodalanadi.

Mustaqil ish samaradorligining muhim sharti – bu uning nazorati. Psixologik tomondan faqat nazorat qilinadigan va baholanadigan ishlargina mazmunga ega. Fanni o'rganish deganda har bir laboratoriya ishiga tayyorgarlik va uning natijalarini himoya qilish, nazorat ishlari va nazorat testlarini o'tkazish tushuniladi. O'quv rejalarida talabalar mustaqil ishini ishlab chiqish va nazorat qilishga soat ajratish ko'zda tutilmagan. Va, albatta testlarning kamchiliklaridan biri, talaba o'z fikrini ta'riflay olmaydi, qoidaga ko'ra, javoblardan birini tanlaydi. Oraliq va yakuniy nazoratlarni test ko'rinishida o'tkaziladi, ammo buni faqat semestr davomida yozma (yoki test) nazorat ishlari o'tkazilgan holatdagina qo'llash mumkin.

Talabalarning mustaqil ishini nazorat qilish individual ishlarni himoya qilish, suhbat o'tkazish, referatlarni muhokama qilish, har xil shakllarda oraliq nazorat (ON) va joriy nazorat (JN) larni o'tkazish shaklida amalga oshiriladi.

Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishini nazorat qilish shakli va usuli sifatida seminar va amaliy mashg'ulotlardagi frontal (ommaviy) so'rovlar, kollokviumlar, test o'tkazish, o'ziga o'zi hisobot berish, nazorat ishlari, ijodiy ishlarning himoyasi va boshqalardan foydalanish mumkin.

Talabalarning mustaqil ishining nazoratini tashkil etish texnologiyasi nazorat vositalarini sinchkovlik bilan tanlash, uning bosqichlarini aniqlash, nazoratning individual shaklini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Talaba muvaffaqiyatining bahosi ular tomonidan mustaqil ish davomida, talaba mustaqil ishining hamma turlari bo'yicha yakuniy attestasiya prosedurasini ham kiritib, to'plagan ballariga asoslanib reyting tizimi bo'yicha olib boriladi.

Mustaqil ishning nazorati sifatida quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- joriy nazorat;
- oraliq va yakuniy nazorat;
- o'zini o'zi nazorat qilish;
- yakka tartibdagi suhbat va o'qituvchining maslahati;

- referat va yozma ishlarni tekshirish;
- kollokviumlar;
- test o'tkazish;
- guruhli nazorat ishlarni o'tkazish va ularni tekshirish;
- amaliy mashg'ulot matnlari, manba, monografiya va maqolalarni tekshirish.

Talabalarning mustaqil ishini nazorat qilish yo'llari quyidagicha:

- og'zaki nazorat;
- yozma nazorat;
- testli nazorat.

Butun o'quv semestri davomida talaba mustaqil ishining nazorat va faollashtirish shakli bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Balli – reyting baholashni joriy etish;
2. Talaba o'quv ishi sifatining sessiya oralig'idagi nazoratini qo'llash;
3. Test. Fanlar bo'yicha testlar talabalar bilim saviyasini ballarda baholash imkonini beradi. Baholovchi testlar o'qituvchilar tomonidan oraliq va yakuniy nazorat shakli kabi qo'llanishi mumkin.

Talabalar mustaqil ishining tavsiya etiladigan nazorat shakli:

1. Auditoriya mashg'ulotlari vaqtida tanlab olingan nazoratlar;
2. O'qilgan materialga annotasiya yozish;
3. O'qilgan material bo'yicha sxema, jadvallar tuzish;
4. Adabiyotlar sharhi;
5. Adabiyotlardan foydalangan holda referat tayyorlash, ularni taqdim etish;
6. Matn tayyorlash;
7. Savollarni nazorat ishlari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga kiritish.

Talabalar mustaqil ishining keltirilgan shakllardan ko'pchiligi va uning nazorati o'qituvchilar tomonidan qo'llanib kelingan va hozirda qo'llanimoqda. Talabalarni, ayniqsa kichik kurslarni darslik, monografiya, maqola, manbalar bilan ishlashga, matn, referatlarni yozishga, kursYu va undan keyin bitiruv malakaviy ishi (BMI) larini professional, savodli rasmiylashtirishga o'rgatish juda muhimdir.

Talabalarni talaba mustaqil ishining har xil shakli va turlariga hamda ularda mustaqil ishsiz, bilimni muntazam olib bormasdan, ijodiy mehnatga tayyorlangan mutaxassis bo'lish mumkin emaslik tushunchasini shakllantirishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

O'zining auditoriyadan tashqari mustaqil ishi natijalarini taqdim etmagan talaba, o'quv fani bo'yicha yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

2.2.6-§. Mustaqil ish natijalarini baholash mezonlari

Talabani auditoriyadan tashqari mustaqil ishining natijalarini baholash mezonlariga quyidagilar kiradi:

1. O'quv materialini o'zlashtirish saviyasi;
2. Nazariy bilimlarni amaliy masalalarni bajarishda qo'llash mahorati;
3. O'rganiladigan mavzu bo'yicha umumo'quv, taassurot, bilim va mahoratning to'laligi;
4. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish bo'yicha qo'yilgan savollarga javobning asoslanganligi va aniq ta'riflanishi;
5. Material hisobotini o'qituvchi tomonidan berilgan yoki shunga o'xshash materiallarga qo'yiladigan ma'lum talablarga mos ravishda rasmiylashtirish.

Talabalarining og'zaki mustaqil ishini rasmiylashtirish

Yozma mustaqil ish talabalar mustaqil ishlarining tuzilishi va rasmiylashtirishga o'rnatilgan talablariga mos ravishda mustaqil ish uchun daftarda yozilib kompyuterda terilib, A4, A3, A2, A1 format qog'ozlarida rasmiylashtiriladi (kurs ishi, referat, texnik rasm va chizmalardan tashkil topgan ish).

Yozma mustaqil ishlar balli-reyting tizimi bo'yicha baholanadi va talabalarining joriy o'zlashtirish ko'rsatkichlari kabi hisobga olinadi hamda o'qituvchining guruh o'quv mashg'ulotlari jurnali betidagi fanga mos qatorida qo'yiladi.

Talabalarining mustaqil ishini faollashtirish

Talabalarining mustaqil ishini faollashtirishga yordam beruvchi omillar ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Bajariladigan ishlarining foydaliligi. Agar talaba, bu ishining natijalari ma'ruza kursi, uslubiy qo'llanma, laboratoriya amaliyoti,

maqolani tayyorlash yoki boshqa ko'rinishlarda qo'llanilishini bilsa, unda vazifani bajarishga munosabat va bajaradigan ishining sifati sezilarli o'zgaradadi. Bunda talabani ruhiy tayyorlash, unga bajaradigan ishi qanchalik zarurligini ko'rsatish muhim.

Kasbiy tayyorlashda foydalilik omillari qo'llanilishining boshqar varianti ish natijalarini faol tadbiq etish. Masalan, agar talaba past kurslarning birida malakaviy ishga topshiriq olsa, u bir qator tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlarining sikllari bo'yicha mustaqil ishlarni bajarishi mumkin, ular keyinchalik uning malakaviy ishiga bo'lim sifatida kiradi.

2. Talabalarining ijodiy faoliyatga qatnashishi. Bu u yoki bu kafedrada o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba konstruktorlik uslubiy ishlariga qatnashishi bo'lishi mumkin.

3. Muhim sababli (motivasion) omillarga jadal (intensiv) pedagogika kiradi. U o'quv jarayoniga faol usullarni – hammadan ko'proq asosida innovasion o'yinlar yotgan o'yinli treningni kiritishni tavsiya etadi. Bunday o'yinlarda ob'ektlar to'g'risida bir qirrali xususiy bilimlardan ko'p qirralisiga o'tish, oddiygina qaror qabul qilish mahoratini egallabgina qolmay, asosiy qarama-qarshiliklarni ajratish bilan uni modellashtirish sodir bo'ladi. Bunday yo'lga birinchi qadam mashg'ulotlarning qiziqarli va situasion shakllari, shu jumladan kompyuterlardan foydalanish hisoblanadi

4. O'quv fanlari bo'yicha olimpiada, ilmiy-tadqiqot va ilmiy amaliy shunga o'xshash ishlarning tanlovlari qatnashish.

5. Bilim nazoratining asosli omillaridan foydalanish (jamg'arilgan baho, reyting, testlar, nostandart nazorat proseduralari). Bu omillar ma'lum bir sharoitlarda talabani mustaqillikka intilishni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa talabani o'zini o'zi mukammallashtirishning kuchli asosli omili hisoblanadi.

6. Talabalarni o'qish va ijodiy faoliyatidagi yutuqlarini taqdirlar (stipendiya, mukofotlash, taqdirlovchi ballar) va yomon o'qish va yomon xulq uchun jarima. Masalan, muddatidan oldin topshirilgan ish uchun, yuqori baho qo'yish mumkin, aksincha esa uni kamaytirish.

7. Jadal o'quv va, birinchi navbatda, mustaqil ishda o'qituvchining shaxsi asosli omil hisoblanadi

2.2.7-§. Talabalar mustaqil ta'limini loyihalashtirish

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorat ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usul va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalari va manzillardan samarali foydalanish;
- ananaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, meyoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;

2. Talaba mustaqil ishning tashkiliy ishlari.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- hajmi, murakkabligi, mazmuni talabalarning o'zi tomonidan shakllantiradigan ilmiy krossvordlar tuzish;
- turli hil harakterdagi uy vazifalarini bajarish (masalalar yechish, turli jadvallar tuzish va to'ldirish);
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

3. Talaba mustaqil ishining axborot ta'minoti.

Talabaga mustaqil ishini bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar taqdim etiladi.

Mustaqil ishini bajarish uchun talabaga ahborot manbai sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va ilmiy ommaviy davriy nashrlar internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, beriladigan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar namuna sifatida taqdim etiladi.

Universitet rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi va internet tarmog'ida samarali foydalanish uchun shart sharoitlar yaratib beriladi.

Talabaning mustaqil ishi uning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi. Mustaqil ish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida.

2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.

3. Axborot resurs markazida, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Mustaqil ish bo'yicha test savollari, topshiriqlar va mashqlar ustida ishlash asosan mustaqil bajariladi. Bu ish natijalari esa auditoriyada (amaliy va laboratoriya) mashg'ulotlarida o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va baholanadi.

4.a. Amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish - Mustaqil ishlarning asosiy ko'rinishlaridan biri amaliy ishlarni bajarish jarayonidir. Amaliy mashg'ulotlar talabada bilimni mustahkamlovchi ularni yangi vaziyatga ko'chirib, amaliy masala va vaziyatlarni hal qilish uchun umumpedagogik tushunchalar va asosiy pedagogik mahoratlarni rivojlantirishga qaratilgan. Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarida yangi psixologik-pedagogik tashxis va metodikalar bilan tanishib, ular bilan ishlaydilar, guruhlariga bo'lingan holda va pedagogik texnologiyalarni tahlil qilishadi. Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki tajriba o'tkazadilar.

4.b.O'quv adabiyotlari bilan ishlash - Kitoblar va o'quv adabiyotlari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish mustaqil ta'lim olishning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. O'quv

adabiyotlari bilan ishlashni barcha ta'lim oluvchilar yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. O'quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar, ma'lumotlar, yo'riqnomalar va h.k. tushunish mumkin.

4.c. CHizmalar va sxemalarni o'qish va tuzishni o'rganish - Kasb ta'limi fakultetini ko'pchilik fanlari texnikaviy asoslarga ega bo'lganligi sababli chizmalarni o'qish, sxemalarni tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarga chizmalarni o'qish va tuzishni o'rgatish uchun ularda grafik bilim elementlari bilan tanishishlari chizmalarni o'qishni o'rgatishdan boshlanadi. Mashg'ulotlarda texnologik hujjatlar sifatida texnik rasmlar, eskizlar va ish chizmalaridan foydalaniladi. Sxemalarni o'qish: mashinaning nomi, vazifasi va qaysi joylarda qo'llanishini aniqlash; uning ish jarayonini tushuntirish; detallarning vaziyati, harakatni uzatish usullari hamda ketma-ketligini aniqlash;

4.d. Ma'ruza tayyorlash - Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalanilmoqda. Ta'limning asosiy shakli esa ma'ruza hisoblanadi. Ma'ruza tayyorlash ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ish. Bo'lajak matematika o'qituvchilari matematika fanida ma'ruza tayyorlashlari ularning ham pedagogik, metodik va kasbiy bilimlarni oshishiga olib keladi.

4.e. Masofali ta'lim texnologiyasi - Masofaviy ta'lim tizimi an'anaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda muammolarga duch kelingan yoki shartsharoit ushbu jarayonni taqozo qilganda qo'llaniladi. Bu jarayon ma'lum muhitda ta'lim samaradorligini oshirishga zamonaviy texnologiyalardan yetarlicha foydalanishga zamin yaratadi. Masofaviy ta'limning asosini mustaqil ta'lim tashkil qilganligi uchun ham talabalarda ijodiy tafakkur rivojlanib boradi. Masofaviy ta'limda o'quv jarayonining muddati qat'iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob yo'llashni talaba o'zi mustaqil, o'ziga qulay vaqtda bajaradi. Ushbu masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masofaviy ta'limni tashkiliy-metodik modellari quyidagi asosda tavsiy qilish mumkin: korrespondentlik

ta'limi, keys texnologiyasi, radiotelevizion ta'lim, tarmoqli o'qitish, mobil - texnologiyasi va h.

4.j. Uy vazifalarini bajarish daftarlari-ayrim talabalar uy vazifalarini bajarishda fan kitoblaridan maxsus fanlarga taalluqli jurnal va gazetalardan, informatsion texnologiyalardan foydalanib uy vazifasini bayon shaklida, ma'ruza matn shaklida, sxema 3 shaklida bajarishi mumkin. Vazifalarni bajarishda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumotlar to'playdi, chizmalar chizadi. Bu esa mustaqil ish sifatida qabul qilinishi mumkin.

4.k. Nazorat ishlariga tayyorlanish - Testlarga va nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham mustaqil ta'limning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim olish davrida testlar va nazorat ishlari topshirish talabalardan katta javobgarlik talab qiladi. Testlarda va nazorat ishlarida talabalar o'quv rejasini qanday darajada o'zlashtirganliklari haqida hisobot beradilar. Talabalarning nazoratlarga o'z xohishi asosida mukammal tayyorlanishi a'lo baho olishining garovidir. Talaba har bir darsga o'z vaqtida va yaxshi tayyorlansa ham u nazorat ishlaridan oldin baribir qayta tayyorlanishi kerak, ya'ni materialni qayta o'qishi, umumlashtirishi va tizimlashtirishi lozim. O'quv fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida talabalarning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakl va turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

№ Mustaqil ishlarning shakllari

Mustaqil ishlarning turlari

1. Reproduktiv shakldagi mustaqil ishlar - fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash va konspekt qilish;

- O'zbekiston Resublikasi Qonunlari, O'zbekiston Resublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalarini, Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni mustaqil o'rganish va konspektlashtirish;

- ma'ruzalarni video hamda audio orqali ko'rish, eshitish va konspekt qilish; - multimedia vositalari orqali slaydlar, video materiallarni ko'rish, eshitish va o'zlashtirish;

- o'quv materiallarini qaytarish, yod olish va boshqalar.

2. Anglashizlanish (qidirish) shaklidagi mustaqil ishlar - mustaqil ravishda axborotlar, ko'rgazmali vositalarni tayyorlash, ma'ruzalar va boshqa materiallarni o'rganish;

- hisob-kitob va analitik ishlarni bajarish, testlar yechish;

- seminar, amaliy va boshqa mashg'ulotlarda ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish;

- uy ishlari, nazorat ishlari, taqdimotlar, referatlar, keys-stadilar va boshqalarni bajarish.

3. Ijodiy ish shaklidagi mustaqil ishlar - esse, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari tayyorlash va himoya qilish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish va ilmiy hisobotlar tayyorlashda qatnashish;

- talabalarining ilmiy to'garaklarida ishtirok etish;

- ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish, ilmiy maqolalar tayyorlash hamda chop ettirish.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari ko'rsatilishi lozim. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarining mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, kerakli adabiyotlarni topa olmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) fanning professor-o'qituvchisidan maslahatlar oladilar. Mustaqil

o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn professor-o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

Referat tayyorlash - mazkur fan bo'yicha o'tiladigan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqori bo'lib, shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida fan bo'yicha mashg'ulot olib boruvchi kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda professor-o'qituvchi tomonidan talabalarining referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezonini qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Topshiriq talabalarining referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim. Referat tarkibiy jihatdan titul, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topadi. Kirish qismida talaba referat mavzusining dolzarbligi, uni yoritishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar hamda referatda ochib beriladigan savollarni qisqacha yoritadi. Asosiy qismida mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan savollar (paragraflarni) rejada keltirilgan ketma-ketlikda, talabaning o'z mustaqil mushohadasi va fikrlariga tayangan holda, adabiyotlardan olingan ilmiy va nazariy materiallar (ularga havola keltirilgan holda), turli statistik va operativ ma'lumotlar (ularning manbalari ko'rsatilgan holda) asosida batafsil yoritiladi. Xulosa va tavsiyalar qismida talaba o'z mustaqil yondoshuvi va ijodiy fikrlashini namoyon etishi hamda qisqa satrlarda mavzuni yoritish jarayonida olingan xulosalari va tavsiyalarini tartib bilan rejada keltirilgan ketma-

ketlikda ifodalashi lozim. Keys-stadilar (muammoli vaziyatlar tahlili) tayyorlash. Keys usuli (ingl. Case method - keys-usuli, keys-stadi) aniq bir vaziyat yoki muammoli holat tahlili sifatida ta'lim berish hamda o'rganish texnikasini ifodalaydi. Keys-stadi usulida aniq muammolar, vaziyatli holatlar batafsil yoritiladi hamda ularni hal etish bo'yicha xulosalar, yechimlar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu usulda talabalar yuzaga kelgan muammo yoki vaziyatni mufassal o'rganib, tahlil etishlari hamda bu vaziyatni bartaraf etishning turli muqobil variantlarini ishlab chiqishlari va ulardan eng optimal bitta yechimni tanlab olishlari talab qilinadi.

Keyslar asosan real voqealar va vaziyatlarga asoslangan bo'lishi hamda ishlab chiqarish amaliyotidan olingan bo'lishi maqsadga muvofiq. Professor-o'qituvchi keysni yechish jarayonida talabalarni biznes bilan bog'liq bo'lgan muammolar va vaziyatli holatlar yechimlarini topishga, eng optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda muqobil tanlov sharoitida qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiradi.

Tayyorlangan keyslarning muvaffaqiyati quyidagi uchta mezonlarga mos kelishiga bog'liq:

1. Boshlang'ich ma'lumotlar bazasining yetarli hajmda ekanligi.
2. Keyslarni ishlab chiqishda amaliyotdan mutaxassislarining ishtirok etishi.
3. Muammoning yechimini izlab topishda tahlilning turli usullarini qo'llashga imkon beruvchi vaziyat yoki muammoli holatning mavjudligi.

Keys-stadilarni adabiyotlar, jurnal va gazetalarda e'lon qilingan vaziyatlar, maqolalar va ma'lumotlar asosida tayyorlash ham mumkin. Ammo, real hayotdan olingan va real vaziyatlarga asoslangan keyslar qimmatli bo'lib, talaba keysni yozish jarayonida mutaxassislar bilan muloqot o'tkazishi hamda hisobotlardan foydalanishi juda muhimdir. Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan axborot-kommunikatsiya vositalari

yordamida bajariladigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi.

Mavzu professor-o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin. Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi. Bunda professor-o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Talabalarining ilmiy-nazariy konferentsiyalari - ular mustaqil ishlarining shakllaridan biridir.

Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarining konferentsiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi.

Talabalarining ilmiy-amaliy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich - o'qitilayotgan fan bo'yicha barcha o'quv guruhlarida konferentsiyalarni o'tkazish;

2-bosqich - har bir guruhdan tanlab olingan talabalarining eng yaxshi ma'ruzalarini fakultet va fakultetlararo konferentsiyaga taqdim etish hamda o'tkazish;

3-bosqich - fakultetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Barcha guruhlar uchun yagona bo'lgan konferentsiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma'ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin. Ilmiy maqolalar, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli bo'lgan materiallar to'playdi va bular asosida ilmiy maqola hamda ma'ruza tezislari tayyorlaydi.

Bitiruv malakaviy ishi tayyorlash. Bitiruv malakaviy ishi-oliy o'quv yurtlaridagi uzluksiz ta'limning bakalavriat yo'nalishida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir. Bitiruv malakaviy ishida talabaning oliy o'quv yurtida o'qish davomida to'plagan barcha nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, talabaning nazariy bilimlar bilan qurollanish darajasi, uning olgan bilimlari va ko'nikmalarini ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini yechishga qay darajada qo'llay olishi namoyon bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish talabadan universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishni talab etadi, talabaning o'qish davomida olgan bilimlarini umumlashtirishga, chuqurlashtirishga va mustahkamlashga, ularni amaliyotga qo'llashga imkon beradi.

Mustaqil ishlarni va talabalar bilimni tekshirish. Talabalarning bilimni tekshirish ya'ni aniqlash, yangi materialni mustahkamlash vaqtida, o'tilgan o'quv materiallarini o'zlashtirish, hisoblash grafik ishlarini va uy topshiriqlarini bajarishlari jarayonida talabalarning bilimlari tekshiriladi va unga ball qo'yiladi.

Nazorat turlari - reyting tizimida o'quv rejasiga kiritilgan har bir o'quv fani bo'yicha talabalarning bilimi sifatini baholash uchun quyidagi nazorat turlaridan foydalaniladi:

- Joriy nazorat (JN)
- Oraliq nazorat (ON)
- Yakuniy nazorat (YaN)

Joriy nazorat (JN) - og'zaki so'rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazolar, ya'ni talaba o'z amaliyotida ko'llaydigan barcha so'rov turlarini o'z ichiga oladi. Joriy nazoratda o'tkaziladigan so'rov turlarini quyidagi qisqartirilgan kodlar bilan belgilashni tavsiya etamiz:

- Test (T);
- Og'zaki (O);
- Laboratoriya ishi (L);
- Masala yechish (M);
- Uy vazifasi (U);
- Kurs loyihasi (KL);
- Yozma ish (Yo);
- Nazorat so'rovi (Ns);
- Texnikaviy diktant (Td);
- Amaliy ish (A); va h.k.

Joriy nazorat o'quv dasturlari bir yoki bir necha mavzularini o'rgangandan so'ng o'tkaziladi.

Oraliq nazorat (ON) - o'quv fanining alohida maqsadga qaratilgan katta va tugallangan hajmidan keyin o'tkaziladi. Bu o'quv dasturining bir yoki bir necha bo'limidan keyin bo'lishi mumkin. ON semestr davomida har oy yakunida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy nazorat (YaN) - semestr davomida o'tilgan barcha bob va mavzularga taallukli asosiy savollarni qamrab olishi kerak. Bu nazorat semestr yakunida test yoki yozma ish asosida o'tkaziladi.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi.

Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi

o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda kompyuter bilimlariga ega bo'lish zamon talabiga aylandi, bunga sabab kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan talabning kundan-kunga ortib borayotganligidir. SHu nuqtai nazardan qaraganda, o'qitishning turli shakllarida - nazariy, amaliy, seminar va boshqa mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish XXI asr "texnika davri" talabiga javob berishi zarur. SHu sababli ham talabalarning mustaqil bilim olishi va o'zlashtirish darajalarini aniqlashda kompyuterdan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida o'qitiladigan turli fanlarda kompyuterdan keng va samarali foydalanish uchun o'quv nazariy va amaliy dasturlar tizimi yaratilmoqda. Bizning fikrimizcha, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishda asosiy e'tiborni amaliy topshiriqlarni bajarishga qaratish maqsadga muvofiq. CHunki, talabalarda kompyuter va uning amaliy dasturlari bilan ishlay olish malakasini oshirishga e'tibor bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari bilan ishlay olish malakalarini egallashlari, dunyoda bo'layotgan voqeahodisalardan xabardor bo'lishlarida, o'z bilim darajalarini yanada boyitib borishlarida Internet tarmog'i bilan ishlay olish malakalarini egallashgan bo'lishlari muhim hisoblanadi. Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun dastlab, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun avval quidagi ishlarni bajarish zarur:

1. Mavzudagi asosiy tushunchalarning o'zlashtirilish sifatini baholash mezonini ishlab chiqish.

2. Mavzudagi asosiy tushunchalarning talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirishlari uchun maxsus kompyuter dasturlarini ishlab chiqish.

3. Talabalarning fandan mustaqil bilim olishiga zarur, kerakli kompyuter jihozlarini tayyorlash.

4. Oliy o'quv yurtlarining o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalariga mos ravishda bilimlarni egallashida zamonaviy kompyuter dasturidan foydalanishning samarali yo'llarini izlab topish.

Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini tayyorlashda, bajarishda quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- ma'ruza mashg'ulotiga oid mustaqil ta'lim topshiriqlarini tanlashda ularning auditoriyada o'rganiladigan mavzular bilan uzviyligini ta'minlash;

- uyda mustaqil ravishda o'rganiladigan mavzularning va o'rganilishi lozim bo'lgan asosiy savollarning aniq bayon etilishiga erishish;

- amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini o'rganilayotgan nazariy o'quv materiallari bilan mutanosib bo'lishini hisobga olish;

- amaliy ishlarni, mustaqil ishlarni bajarishga oid mavjud metodik ishlanmalar yaratilganligini hisobga olish;

- mustaqil ravishda yechilishi lozim bo'lgan misol va masalalarning aniq ro'yxatini tuzish;

- mustaqil ish topshiriqlarining axborot ta'minoti, jumladan adabiyotlar ro'yxati, betlari ko'rsatilgan holda, elektron o'quv qo'llanmalar va Internet manzili ko'rsatilishiga erishish va h.k.

Talabalarning o'quv malakalari o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quv malakalari o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi. SHunday qilib, o'quv malakalari talabalarning ta'lim jarayonidagi barcha o'quv-bilish faoliyatlari bilan bog'liqdir. O'quv ishlarining har

qanday shakli o'quv-malaka talab qiladi, masalan, o'qituvchi ma'ruzasini eshitish, amaliy topshiriqlarni bajarish, test topshiriqlari bilan ishlash, mustaqil ishlash malakasi kabilar.

Talabalarining fandan mustaqil bilim olishlari jarayonida birinchi navbatda mustaqil ishlash malakasi talab etiladi. Bunday malaka o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quv malakalari o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlari ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi.

Talabalarining mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining shakllanganligining to'rt darajasi:

1-daraja. Quyi darajaga ega bo'lgan talabalar, ular mustaqil ta'lim olishning ma'naviy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini hisobga olish bilangina cheklandilar. Mustaqil ta'lim darajalarini baholashda qiyinchiliklarga duch keldilar. Mustaqil ishlash turlaridan namunalar bo'yicha mustaqil ishlar bajarish ko'nikmalarigagina ega bo'ldilar. Mustaqil faoliyat olib borish malakalari darajalaridan; materiallarni o'rganishda umumiydan muhimlarini ajratib olish malakasiga ega bo'ldilar. Mustaqil ishlashga etarlicha vaqt ajratmaydilar, berilgan vazifani o'qituvchi topshirig'i va kuzatuv asosidagina bajaradilar.

2-daraja. O'rta darajaga ega bo'lgan talabalar - mustaqil ish bajarish uchun lozim bo'ladigan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilishdi. Formulalarni keltirib chiqarish, berilgan namunalarga asoslanib mantiqiy yechimlarga kelish, rekonstruktiv -variativ mustaqil ishlarni bajara olishdi. Mustaqil faoliyat olib borishda o'qish, yozish, chizish, sxemalar tuzish jarayonlariga ijodiy yondasha olish mahoratiga ega bo'ldilar. Mustaqil ish bajarishga muntazam kirishib ketolmadilar.

3-daraja. Yaxshi (ya'ni yetarli) darajaga ega bo'lgan talabalar, mukammal bilimga ega bo'lish uchun mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish lozimligini anglab yetdilar. Texnik-metodik muammolarni yechishda ijodkorlik darajalari yetarli. Evristik turdagi

mustaqil ishlarni bajara oldi. Axborotni ahamiyatiga ko'ra tabaqalashtirishdi. Mustaqil ta'lim olishni o'quv mashg'ulotlarida va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda samarali tashkil qila oldilar hamda ushbu darajada mustaqil ta'lim bilan muntazam shug'ullandilar.

4-daraja. Yuqori darajaga ega bo'lgan talabalar, ular mustaqil ta'lim olish metodlari, vositalari hakida to'lik ma'lumotga ega, olingan ma'lumotlarni tahlil qila oldilar. Yangiliklar, ixtirolar yaratishga, ijodiy tadqiqot ishlari va tanqidiy sintez amallarini bajara oldilar. Ushbu talabalar mustaqil ta'lim bilan muntazam shug'ullangan holda, mustaqil ta'lim olishining yanada samarali yo'llarini o'zlashtirishga ishtiyoqmand bo'ldilar.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Talabalarining pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion baryerlarni bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash lozim.

Talabalarining kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarining kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan, ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda talabalarining kreativ ko'nikma va malakalari rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarining fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etishda, avvalo, ularning mustaqil bilim olishlari uchun ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hamda ta'limiy yondashuvlarni hisobga olish zarur. Talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga kreativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, talablarni bilimlarni chuqurroq egalashga, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон, 2003.38 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни – Т.: 2020 йил, 23 сентябрь //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3151-сон қарори //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 70 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга ошириладиган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3775-сон қарори//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси". ПФ-5847-сон фармони//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги "Профessional таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора - тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5812-сон аармони//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги "Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" қарорлари ПҚ-4623-сон қарори//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора –тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сон қарори. //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www.Lex.uz

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-6012-сон Фармони//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: [www Lex.uz](http://www.lex.uz)

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Ўзлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон қарори //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси: www Lex.uz

12. Абдуллаева Қ.М. Махсус фанларни ўқитишда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришнинг методик асослари. п.ф.н. дисс. – Т., 2006. – 182 б.

13. Авазбоев А.И. Ўқув предметлари мазмунини интеграциялаш асосида меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашни такомиллаштириш. п.ф.н. дисс. – Т., 2001. – 124 б.

14. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т., ТДПУ, 2003. – 174 б.

15. Авлиёкулов Н.Х. Ўқитишнинг модул тизими ва педагогик технологияси амалий асослари. Услубий қўлланма. – Бухоро., 2001. – 49 б.

16. Андреев, А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа /А.Л. Андреев // Педагогика. – 2005. - № 4. – С.19-26

17. Баракаев М. ва бошқалар. Мустақил таълимни ташкил этиш методикаси. Ўқув – услубий қўлланма. Т., “Истиқлол нури”. 2017 йил. 70 – бет.

18. Басов М. Я. Общие основы педологии / М.Я. Басов. – Москва.: Алетея, 2007 – С.776. (переезд с 1928 года).

19. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. – п.ф.д. дисс. – Т., 2007.

20. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Просвещение, 1995. – 336 с.

21. Бородина Н. В. Основы разработки модульной технологии обучения: Учебное пособие / Н. В. Бородина, Н. Е. Эрганова. – Екатеринбург: изд-во Урал. гос. проф.-пед. ун-та, 1994. – С.87.

22. Ганиева М.А., Файзуллаева Д.М. Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами. Методик қўлланма /“Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар”. – Т.: ТДИУ, 2013. – 95 б.

23. Жалолова Д.Ф. Махсус фанларни ўқитишда ўқитувчиларнинг мустақил иш ижодий ишлаш фаолиятларини ривожлантириш (Касб-хунар

коллежларининг “Тикувчилик ишлаб чиқариш” йўналиши мисолида): п.ф.н. дисс. – Тошкент: 2009. – 170 б

24. Жданова, Т.А. Самостоятельная работа как категория дидактики высшей школы. «Ученые заметки ТОГУ» Том 4, № 4, 2013.

25. Загвязинский В.И. Теория обучения: Современная интерпретация: Учеб, пособие для студентов высш. пед. учеб, заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 192 с.

26. Зимняя, И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования /И.А. Зимняя. – М., 2008. – С.250.

27. Зеер, Э. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования /Э. Зеер, Э. Сыманюк // Высшее образование в России. –2005. № 4. – С. 23-30.

28. Мирзаев. Б.Т. Ўқув жараёнида мустақил иш талабаларнинг билиш ва ижодий фаоллигини таъминлаш сифатида. Халқ таълим. // 2009 йил. 2-сон. 27 – бет.

29. Минина Е.В. Условия организации самостоятельной работы студентов вуза: теоретический аспект // Педагогическое образование в России.2016. №8. С.59-64.

30. Муқимов Б.Р. Талабаларни мустақил иш жараёнида интерфаол таълим методлари асосида дидактик компетенциясини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2020. – 186 бет.

31. Тожибоева Д. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: **Фан ва технология, 2007. -271 б.**

32. Ҳайдарова О.Қ. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнига технологик ёндашувга тайёрлаш. – п.ф.н. дисс. – Т.: ЎзПФИТИ, 2004. – 23 б.

33. Химматалиев Д.О., Муқимов Б.Р. Таълимда ахборот технологиялари фанидан амалий машғулотларни бажариш // услубий кўрсатма. – Т.: ТИҚХММИ, 2015. – 90б.

34. Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. P. 176-188.

35. Elizabeth Kiss, J.Peter Euben. Debating moral education. Rethinking the Pole of the Modern University. London: 2010. – 344 p.

36. Holiqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: 2011, 424 b.

37. <http://www.pedagog.uz>

38. <http://www.bilimdon.uz>

39. <http://www.edunet.uz>

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. BO‘LAJAK KASB TA‘LIMI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TALABA MUSTAQIL ISHINING DOLZARBLIGI ..	6
1.1-§. Talabalar mustaqil ishining mohiyati va mazmuni.....	6
1.1.1-§. Talabalar mustaqil ishi – mutaxassis va tadqiqotchi yaratilishining zaruriy bo‘g‘ini.....	6
1.1.2-§. Mustaqil ishning asosiy belgilari.....	17
1.1.3-§. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilarga uslubiy tavsiyalar.....	17
1.1.4-§. Chet elda talabalar mustaqil ishini tashkil etishning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari.....	18
1.1.5-§. Talaba mustaqil ishining maqsadi.....	19
1.2-§. Kafedra tomonidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish.	20
1.2.1-§. Talabaning mustaqil ishini tashkillashtirish.....	20
1.2.2-§. Talabalar mustaqil ishini rejalashtirish.....	26
1.2.3-§. Mustaqil ish turlari.....	28
II BOB. TALABALAR MUSTAQIL ISHINING SHAKLLARI	30
2.1-§. Talabalar mustaqil ishining o‘quv-uslubiy ta‘minoti.....	30
2.1.1-§. Talabalar mustaqil ishi turlari va shakllari.....	30
2.1.2-§. Mustaqil ish bosqichlari.....	31
2.1.3-§. Talabalar mustaqil ishining samaradorlik shartlari.....	32
2.1.4-§. Talabalarning ilmiy mustaqil ishi.....	37
2.2-§. Oliy ta‘lim muassasasida talabalarning ilmiy mustaqil	

ishining tarkibiy tuzilmasi.....	37
2.2.1-§. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning ilmiy mustaqil ishlarining shakllari.....	37
2.2.2-§. Internet-manba yordamida talabalarning mustaqil ishi. . .	48
2.2.3-§. Kurs ishi – talaba mustaqil ishini yo‘nalishlaridan biridir	50
2.2.4-§. Talabalarning mustaqil ishini modellashtirish.....	60
2.2.5-§. Talabalar mustaqil ishining nazorat tizimi (monitoringi) .	61
2.2.6-§. Mustaqil ish natijalarini baholash mezonlari.....	64
2.2.7-§. Talabalar mustaqil ta‘limini loyihalashtirish.....	66
XULOSA VA TAVSIYALAR	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	81

- 4684/x -

Ilmiy nashr

XIMMATALIYEV D.O, ALLAYOROVA S.B.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK-KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL ISHLARNI
TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY
TAVSIYALAR**

(Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida)

Monografiya

Muharrir: Alijon Jo'raev

Texnik Muharrir: Marguba Kurbanova

Bichimi 60x84. Hajmi 5,4 bosma taboq.
Ofset usulida bosildi. Buyurtma – 111.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«USMON NOSIR MEDIA» NASHRIYO'TI
Namangan shaxri, Navoiy ko'chasi, 36
Nashriyot litsenziya raqami AI - 156
2019 yil 14-avgustda berilgan.

“ FAZILAT ORGTEX SERVIS”
hususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan sh. Amir Temur ko'chasi 97 uy.
Tel: (+998) 91-346-44-43, (+998) 99-608-69-44

ISBN: 978-9910-743-27-6

